

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 270 (1059), 2023-yil 28-dekabr, payshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



MAMLAKATIMIZ IQTISODIYOTI UCHUN MUHIM BO‘LGAN “YASHIL” ENERGETIKA BO‘YICHA YIRIK INVESTITSIYA LOYIHALARI ISHGA TUSHIRILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 27-dekabr kuni mamlakatimizning oltita hududida 5 ta quyosh, 1 ta shamol elektr stansiyalarini ishga tushirish va tarmoqqa ulashga bag‘ishlangan tantanali marosimda ishtirok etdi.



Tadbirida ushbu muhim investitsiya loyihalarining hamkorlari bo‘lgan “Masdar” kompaniyasi bosh ijrochi direktori Muhammad al Ramahiy, “China Energy Engineering Corporation” kompaniyasi vitse-prezidenti Vu Yun, “China Energy International Group” kompaniyasi boshqaruvi raisi Lyu Szesyan, “China Gezhouba Group” kompaniyasi boshqaruvi raisi Lin Syaodan, “SEPCO III”, “Dongfang Electric Corporation” va boshqa kompaniyalar rahbarlari ishtirok etdi.

Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, O‘zbekistonda energetika tizimini isloh qilish va barqarorligini oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli dastur amalga oshirilmoqda.

Keyingi yillarda tarmoqda xususiy sektor va yetakchi xorijiy kompaniyalar faoliyati-

ga qulay sharoitlar yaratildi. Ular ishtirokida O‘zbekistonda qayta tiklanuvchi energetika salohiyatini kengaytirishga qaratilgan ko‘plab loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshirilmog‘da. Xususan, ilk bor 100 foiz to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hisobidan davlat-xususiy sheriklik asosida Karmana va Nurobod tumanlarida umumiy quvvati 200 megavattlik quyosh stansiyalari barpo etilib, o‘tgan davrda ular 1 milliard kilovatt-soat “yashil” elektr energiyasini ishlab chiqardi.

Dunyoning qirqdan ortiq davlatida “yashil” energetika sohasiga doir turli tashabbuslarda ishtirok etib kelayotgan Birlashgan Arab Amirliklarining “Masdar” kompaniyasi mamlakatimizda ham yirik to‘rtta loyihani yakunladi.

Ulardan biri Jizzax viloyatidagi quvvati

220 megavattli quyosh fotoelektr stansiyasidir. Ushbu 150 million dollarlik loyiha uchun G‘allaorol tumanidan 560 gektardan ortiq yer maydoni ajratilib, 460 ming dona quyosh panellari o‘rnatildi.

Samarqand viloyatining Kattaqo‘rg‘on tumanida ham xuddi shu quvvatdagi quyosh fotoelektr stansiyasi faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Surxondaryo viloyati Sherobod tumanidagi shu yo‘nalishdagi elektr stansiyasining quvvati nisbatan balandroq — qariyb 460 megavatt bo‘ldi. Bu manzildagi 630 gektardan ortiq maydonga 900 ming donaga yaqin quyosh paneli va zarur uskunalari joylashtirildi.

Barpo etish loyihasi yakunlangan ushbu uchta zamonaviy fotoelektr stansiyasining umumiy quvvati 900 megavattni tashkil qilmoqda.

Shuningdek, mazkur kompaniya tomonidan Navoiy viloyati Tomdi tumanida 500 megavattlik shamol elektr stansiyasining birinchi bosqichi qurib bitkazildi.

Xitoyning nufuzli “China Gezhouba Group” kompaniyasi ham dunyodagi saksondan ortiq davlatlardagi katta-kichik loyihalarda faol ishtirok etadi.

Mazkur kompaniya ham Buxoro va Qashqadaryoda har biri 350 million dollardan bo‘lgan, umumiy quvvati 1000 megavattli quyosh stansiyalarining birinchi bosqichi qurilishini yakunladi.

Yuqoridagi keltirilgan oltita stansiyaning har biri yirik loyiha sanaladi. Aslida, uni ishga tushirish ko‘p vaqt talab qiladi. Lekin mamlakatimizda bu sohaga qaratilgan alohida e’tibor bugun o‘z natijasini berdi. Loyihalar

doirasidagi qurilish ishlari juda qisqa fursatda — 9 oyda bitkazilgani diqqatga sazovor.

Marosimda davlatimiz rahbari xorijiy hamkorlar bilan birgalikda ushbu yangi energetika quvvatlarini ishga tushirish va tarmoqqa ulashga start berdi.

Bu loyihalarga katta amaliy hissa qo‘shgan investorlar, muhandis va quruvchilarga alohida minnatdorlik bildirildi.

Jami qiymati 2 milliard dollarlik ushbu stansiyalar to‘liq ishga tushsa, ikki million-ta xonadon uzluksiz elektr energiyasi bilan ta’minlanadi, 2 milliard kub metr tabiiy gazni tejash hamda sanoat va xizmatlar sohasida 4 milliard dollarlik qo‘shilgan qiymat yaratish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Prezidentimiz o‘z nutqida bu sohadagi kelgusi rejalarga to‘xtalib o‘tdi.

— Biz bugun amalga oshirayotgan ulkan ishlar energetika tarmog‘idagi islohotlarning navbatdagi qadamidir. Bu chora-tadbirlarni tizimli davom ettirib, raqobatli bozor mexanizmlariga bosqichma-bosqich o‘tamiz. Hozir yurtimizda 9 gigavattli 22 ta quyosh va shamol elektr stansiyasini qurish loyihalarini ustida ishlayapmiz. Xorijiy kompaniyalar bilan sermahsul hamkorligimizni tobora kengaytirib boramiz, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Umuman, 2030-yilgacha “yashil” energetika manbalarini 27 gigavattga yetkazish rejalashtirilgan. Bu har yili 25 milliard kub metr tabiiy gazni iqtisod qilish, atmosferaga zarari tashlanmalmi 34 million tonnaga qisqartirishga xizmat qiladi.

O‘ZA

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING “YASHIL” ENERGETIKA SOHASIDAGI YIRIK QO‘SHMA LOYIHALARNI ISHGA TUSHIRISHGA BAG‘ISHLANGAN TANTANALI MAROSIMDAGI NUTQI

Hurmatli tantanali marosim ishtirokchilari! Hurmatli xonimlar va janoblar!

Avvalambor, siz, azizlarni shunday qutlug‘ kunlarda, Yangi yil arafasida Yangi O‘zbekiston hayotidagi ulkan tarixiy voqea — “yashil” energetika sohasidagi yirik qo‘shma loyihalarni ishga tushirishga bag‘ishlangan tantanali marosimda ko‘rib turganimdan besh yil oldin baxtiyorman.

Yaxshi xabardorsiz, biz bundan besh yil muqaddam qayta tiklanuvchi energiya manbalarini ko‘paytirish bo‘yicha oldimizga juda katta maqsad va vazifalarni qo‘yib, amaliy ishlarni boshlagan edik.

Biz sohani isloh etishni, birinchi galda, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki hamda Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining yetakchi ekspertlari bilan maslahat qilishdan boshladik.

Bir qator qonun hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish va yangi qarorlarni qabul qilish orqali energetika tarmog‘ida bozor tamoyillariga asoslangan mustahkam qonunchilik bazasini yaratdik. Sohada ma’muriy-buyruqbozlik mexanizmlari va monopoliyadan voz kechib, zamonaviy boshqariladigan ochiq va shaffof tizimga o‘tdik. Xususiy sektor va xorijiy kompaniyalarning kirib kelishi uchun qulay imkoniyatlar yaratdik.

Energetika vazirligi, shuningdek, har bir alohida yo‘nalish bo‘yicha mas’ul va javobgar bo‘lgan yangi tashkilotlar tuzildi.

Xalqaro maslahatchi va konsalting kompaniyalarini yollab, ikki yil davomida mamlakatimizda quyosh, shamol va gidroenergetikani rivojlantirish imkoniyatlarini puxta o‘rgandik hamda eng samarali hududlar xaritasini tuzdik.

Natijada chet ellik investorlarning yurtimizga bo‘lgan qiziqishi va ishonchi keskin oshdi.

Ilk bor 100 foiz to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hisobidan Karmana va Nurobod tumanlarida

2 ta quyosh stansiyasi ishga tushirilib, shu kungacha qadar 1 milliard kilovatt-soat “yashil” elektr energiyasi ishlab chiqarildi.

Bugun esa mamlakatimiz tarixida yana bir yorqin sahifa ochadigan muhim hodisa — umumiy quvvati ikki ming to‘rt yuz megavatt bo‘lgan oltita yirik quyosh hamda shamol stansiyalari tarmoqqa ulanmoqda. Jumladan, O‘zbekistonning yaqin do‘sti va keng qamrovli hamkori bo‘lgan Birlashgan Arab Amirliklarining “Masdar” kompaniyasi tomonidan Jizzax, Samarqand va Surxondaryo viloyatlarida uchta quyosh elektr stansiyasining birinchi bosqichi barpo etildi.

Bundan tashqari, ushbu nufuzli kompaniya tomonidan Tomdi tumanida barpo etilayotgan zamonaviy shamol stansiyasining 100 megavattli ishga tushirilmoqda. “Gezhouba” kompaniyasi bilan esa Buxoro va Qashqadaryo viloyatlaridagi quyosh stansiyalarining dastlabki 400 megavattli generatsiyasi boshlanadi.

Eng e’tiborli jihati — ushbu barcha loyihalar davlat-xususiy sheriklik asosida, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hisobidan amalga oshirildi.

Umumiy qiymati 2 milliard dollarlik bu loyihalar hisobidan yiliga 6 milliard kilovatt-soat elektr ishlab chiqarilib, ikki milliard kub metr tabiiy gaz tejaladi. 2 million xonadon uzluksiz va kafolatli elektr energiyasi bilan ta’minlanadi. Sanoat va xizmatlar sohasida 4 milliard dollarlik qo‘shilgan qiymat yaratildi.

Bizning strategik sherigimiz va yirik savdo hamkorimiz bo‘lgan Xitoy ishtirokidagi loyihalar ilgari tajribada kuzatilgan juda qisqa muddatda — 9 oy ichida ishga tushirilganini alohida mamnuniyat bilan ta’kidlaymiz.

Jahonda ishlab chiqarish zanjiri va logistika bilan bog‘liq muammolar qanchalik murakkab ekaniga qaramasdan, biz bu borada “Goldwind”,

“Sungrow”, “Jolywood”, “Longi” kabi kompaniyalar bilan samarali ish olib bordik.

Fursatdan foydalanib, bugungi tadbirimizda hozir bo‘lib turgan “Masdar” kompaniyasi rahbari Muhammad al Ramahiy, metallurgiya, neft-kimyoy va mashinasozlik kabi sohalarni sifat jihatdan mutlaqo yangi darajaga ko‘tarishni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘yganimiz. Umumiy qiymati 150 milliard dollarlik 500 dan ziyod yirik sanoat va infratuzilma loyihalarini amalga oshirishni ko‘zlayapmiz.

Bu ulug‘vor niyatlarimizga erishish uchun bizga kafolati va barqaror energiya resurslari suv bilan havodan zarur. Hisob-kitoblarni ko‘ra, kelgusi olti yilda mamlakatimizda elektr energiyasiga bo‘lgan talab hozirgi 83 milliarddan 120 milliard kilovatt-soatga o‘shishi kutilmoqda. Buni, birinchi galda, qayta tiklanadigan energiya hisobidan qoplaymiz.

Ikkinchidan, biz global muammoga aylangan iqlim o‘zgarishining salbiy ta’sirini yumshatish bo‘yicha tinimsiz izlanayapmiz. Xalqaro sammitlarda muhim taklif va tashabbuslarni faol ilgari surayapmiz. Yaqinda Dubayda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha konferensiyasi doirasida dunyo mamlakatlari “yashil” generatsiyani uch barobar oshirishga kelishib oldi.

O‘zbekiston ushbu tashabbusni to‘liq qo‘llab-quvvatlaydi va 2030-yilgacha “yashil” energetika manbalarini 27 gigavattga yetkazish uchun faol investitsiya siyosatini izchil davom ettiradi.

Uchinchidan, mamlakatimizda “yashil” energetika bo‘yicha nihoyatda ulkan salohiyat mavjud. Yaratganing o‘zi bergan bu buyuk imkoniyatdan unumli foydalanib, uni xalqimiz manfaatlariga yo‘naltirishimiz zarur.

Sohani rag‘batlantirish maqsadida quyosh panellari o‘rnatishga imtiyozli kredit va subsidiyalar ajratish, ishlab chiqarilgan elektr energiyasini kafolatli sotib olish bo‘yicha “Quyoshli xonadon” tizimini yo‘lga qo‘yidik. Shu yilning o‘zida yurtimizda 50 ming xonadon va tadbirkorlar tomonidan quyosh panellari o‘rnatildi. Mamlakatimizda 7 milliondan ortiq uy-joylar borligini hisobga olsak, bu investorlar uchun katta bozor yaratishini alohida qayd etmoqchiman.

To‘rtinchidan, hozirgi kunda global miqyosda “yashil” energiyadan ishlab chiqarilgan mahsulotlarga alohida ustunlik berilmoqda. “Yashil” energiya” sertifikatini keng joriy qilinmoqda.

O‘zbekiston kelgusida aniq reja va qat’iy sa’y-harakatlar orqali “yashil” energiyani Osiyo va Yevropa mamlakatlari bozoriga ham yetkazib berish bo‘yicha dastlabki qadamlarni tashlayapti.

Beshinchidan, ushbu soha sanoatning boshqa tarmoqlari va servisni rivojlantirishga juda katta ijobiy turtki beradi. Bugungi loyihalar doirasida 100 million dollarlik elektr jihozlari va qurilish materiallari mahalliy korxonalar tomonidan yetkazib berilgani ham bu fikrimizning yaqqol tasdiqidir.

Hozirgi vaqtda yurtimizda to‘rtta korxonaga quyosh panellari, yana ikkita korxonaga metall konstruksiyalar ishlab chiqarishni boshladi. “Yashil” energiya sohasidagi ellikka yaqin loyihalar esa qo‘shimcha 500 million dollarlik kabel bozorini yaratmoqda.

Biz xorijiy hamkorlarimizni butlovchi va ehtiyot qismlar ishlab chiqarishda mahalliy korxonalar bilan yaqin kooperatsiya aloqalarini yanada kuchaytirishga chaqiramiz.

Hurmatli do‘stlar! Biz bugun amalga oshirayotgan ulkan ishlar tarmoqda boshlangan katta islohotlarimizning yana bir yaqqol amaliy natijasidir. Bu chora-tadbirlarni izchil davom ettirib, raqobatli bozor mexanizmlariga bosqichma-bosqich o‘tib boramiz. Xususan, bu yo‘lda yaqinda energetika bozori reguliyatorini tashkil etish bo‘yicha muhim qarorni qabul qildik.

Hozir yurtimizda 9 gigavattli 22 ta quyosh va shamol elektr stansiyalarini qurish loyihalarini ustida ishlayapmiz. Shuningdek, 10 ming kilometr yuqori kuchlanishli yangi magistral tarmoqlar barpo etiladi.

Hech shubhasiz, sizlar bilan kelajakda yangi tashabbuslarni aniq loyihalarga aylantirish yo‘lidagi sermahsul hamkorligimizni yanada kengaytirib boramiz. Biz uchun ustuvor bo‘lgan bu kabi loyihalarni amalga oshirish uchun xorijiy investorlarga barcha sharoit va zarur imtiyozlarni yaratib boramiz.

Fursatdan foydalanib, barchangizni kirib kelayotgan 2024-yil bilan chin qalbimdan samimiy muborakbod etaman.

Sizlarga mustahkam sog‘liq, oilaviy baxt-saodat va olib borayotgan sharafli ishlaringizda ulkan omdalar tilayman.

Yangi yilimiz ham mana shunday quvonchli va fayzli lahzalarga boy bo‘lsin!

E’tiboringiz uchun rahmat!

O'ZBEKISTON TASHABBUSLARI — AMALDA

TABIATGA MUNOSABATIMIZNI SHU TAXLIT DAVOM ETTIRIB BO'LMAYDI

chunki bu global muammolar "doyasi", dunyo tanazzuliga yetaklovchi yo'ldir

BMT Bosh Assambleyasi tomonidan O'zbekiston tashabbusi bilan ishlab chiqilgan "Markaziy Osiyo global iqlim tahdidlari qarshisida: barqaror rivojlanish va farovonlik yo'lidagi mintaqaviy birdamlikni mustahkamlash" rezolyutsiyasi qabul qilinishi yakunlanayotgan yilning yorqin voqealaridan biri bo'ldi. Bungacha tuzilma Bosh Assambleyasi doirasida O'zbekistonning tashabbuslari bilan oltita ana shunday rezolyutsiya qabul qilingan edi, ular orqali zimmamizga olingan majburiyatlar bosqichma-bosqich bajarilmoqda.

O'zbekistonning global miqyosda ilgari surgan navbatdagi tashabbusi aynan iqlim o'zgarishi masalalariga bag'ishlangani bejiz emas. Zero, iqlim o'zgarishi bilan bog'liq ekologik muammolar bugungi barqaror rivojlanishga ta'sir ko'rsatayotgan eng asosiy tahdidga aylanib ulgurdi. Bu xavf-xatarlar hatto dunyoning geosiyosiy arxitekturasiga ham ta'sir ko'rsatmoqda.

Chegara bilmas, hudud tanlamas ushbu ekologik ofat mintaqamiz, shu jumladan, mamlakatimizni ham chetlab o'tmayapti. Orol fojiasi tufayli uning ta'siri Markaziy Osiyoda, ayniqsa, jiddiy sezilmoqda. Mintaqamizda havo harorati oshishi jahondagi o'rtacha ko'rsatkichdan ikki barobar yuqori. Favqulodda issiq kunlar soni 2 karra ortdi, muzliklar maydonining uchdan bir qismi yo'qoldi.

Tuproq yemirilishi jarayoni ta'sirida kuchli chang va qum bo'ronlari odatiy holga aylandi. Ichimlik suv taqchilligi, havo ifloslanishi, bioxilma-xillik yo'qolishi, qishloq xo'jaligi hosildorligi pasayishi kabi muammolar tobora avj olmoqda.

Tabiatga munosabatimizni bu taxlit davom ettirib bo'lmaydi, uni o'zgartirishimiz, o'zgarishimiz shart. Chunki bu global muammolar "doyasi", dunyo tanazzuliga yetaklovchi yo'ldir.

Shuning uchun bugungi va kelajak avlodlar hayotiga jiddiy xavf solayotgan ushbu ekologik tanglikni yumshatish va barqaror rivojlanishga erishish ayni paytda jahon hamjamiyati oldida turgan dolzarb vazifaga aylandi. Shu maqsadda BMTning iqlim

Ekologik barqarorlik haqida gap borar ekan, qishloq va suv xo'jaligi sohasidagi tub islohotlar ham e'tirofga sazovordir. Zero, yurtimizdagi jami suv resursining 90 foizi qishloq xo'jaligida sarflanadi. Masalan, bir gektar paxta maydonini sug'orish uchun yiliga 10-11 ming kub metr suv sarflangan holda iqlimi va yeri biznikiga o'xshash mamlakatlarda bundan 2-3 barobar kam suv ishlatiladi.

Prezidentimiz raisligida joriy yil 29-noyabr kuni qishloq xo'jaligida suv resurslaridan oqilona foydalanish va yo'qotishlarni kamaytirish chora-tadbirlari yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida ushbu holat atroflicha tahlil etilib, bir yil davomida suvni tejash bo'yicha favqulodda ish tizimiga o'tilishi belgilangan bo' boradagi muhim qadamlardan biri bo'ldi.

Iqlim muammolari transchegaraviy xususiyatga ega ekan e'tiborga olinib, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish va oqibatlariga moslashishda Markaziy Osiyo mintaqasi hamkorligini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilayapti. Davlatimiz rahbari shu yil Dushanbe shahrida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari maslahat uchrashuvidagi nuqtida iqlim o'zgarishiga moslashish bo'yicha mintaqaviy strategiyani qabul qilishni taklif etdi. Bu esa iqlim barqarorligini ta'minlash va "yashil" rivojlanishga muhim hissa bo'lib qo'shiladi.

Iqlim dasturi boshqa xalqaro formatlar doirasida ham faol ilgari surilmoqda, — deydi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari qo'mitasi a'zosi Islom Xushvaqot. — Xususan, davlatimiz rahbari SHHT doirasida dekarbonizatsiya va "toza" texnologiyalarni joriy etish, "aqil" qishloq xo'jaligini rivojlantirish, suvni tejash masalalarida vazifalarni muvofiqlashtirish va amaliy hamkorlikni kuchaytirish zarurligini ta'kidladi. Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining 16-sammitida ushbu tuzilma doirasida ekologiya masalalari bo'yicha yuqori

Chegara bilmas, hudud tanlamas ushbu ekologik ofat mintaqamiz, shu jumladan, mamlakatimizni ham chetlab o'tmayapti. Orol fojiasi tufayli uning ta'siri Markaziy Osiyoda, ayniqsa, jiddiy sezilmoqda. Mintaqamizda havo harorati oshishi jahondagi o'rtacha ko'rsatkichdan ikki barobar yuqori. Favqulodda issiq kunlar soni 2 karra ortdi, muzliklar maydonining uchdan bir qismi yo'qoldi.

darajali platforma yaratish va uning birinchi anjumanini 2024-yili Samarqand iqlim forumi doirasida tashkil etish taklifini bildirdi. O'zbekiston yetakchisi, shuningdek, Turkiy davlatlari tashkiloti davlat rahbarlari kengashining navbatdagi yig'ilishida ekologiya sohasida hamkorlikni mustahkamlash maqsadida vazirlar darajasida doimiy faoliyat ko'rsatadigan Turkiy ekologiya forumini tuzish tashabbusini ilgari surdi.

Bundan tashqari, BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida Orol fojiasi oqibatlarini va vaziyatni yumshatish bo'yicha mutasaddi idoralar tomonidan ko'rilayotgan chora-tadbirlarga alohida o'talib, BMTning Suv resurslari bo'yicha maxsus vakili lavozimini ta'sis etish va "Markaziy Osiyo iqlim muloqoti"ni joriy etishni taklif qildi.

Prezidentimiz BMTning Cho'llanishga qarshi kurash to'g'risidagi konvensiyasi ijrosini ko'rib chiqish qo'mitasining joriy yil Samarqandda ilk bor o'tkazilgan 21-sessiyasi ishtirokchilariga yo'llagan murojaatnomasida O'zbekiston va butun Markaziy Osiyo mintaqasi iqlim o'zgarishining salbiy ta'siri va ular keltirib chiqaradigan ijtimoiy, ekologik muammolarning og'ir oqibatlari ni to'liq his qilishini yana bir bor qayd etdi. Shu nuqtayi nazaridan, davlatimiz rahbari xalqaro ekspertlar hamjamiyatini O'zbekistonning qum va chang bo'ronlari bo'yicha Samarqand deklaratsiyasini qabul qilish

tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashga chaqirdi.

Joriy yil 1-dekabrda Dubay shahrida BMTning Iqlim o'zgarishi bo'yicha konferensiyasidagi nuqtida ham davlatimiz rahbari ko'plab muhim taklif va tashabbuslarni o'taga tashladi. Jumladan, BMT bilan hamkorlikda 2024-yilda O'zbekistonda "Iqlim migratsiyasi" konferensiyasini o'tkazish, Xalqaro mehnat tashkiloti bilan "Yashil bandlik" dasturini ishlab chiqish va Modellashtirish markazini tashkil etish, SOP Yashil konferensiyasini mamlakatimizda yuqori darajada tashkil etishga oid takliflar milliy va xalqaro doiralarda qizg'in qo'llab-quvvatlandi.

"O'zbekiston — 2030" strategiyasi doirasida yurtimizda barqaror rivojlanish, atrof-muhitni muhofaza qilishga oid chora-tadbirlar yanada kengaymoqda. Mazkur strategiyada inson hayotiga ta'sir o'tkazuvchi ekologik muammolarni bartaraf etish, atrof-muhitning ifloslanish darajasini baholash mexanizmlarini takomillashtirish, ekologik vaziyatni barqarorlashtirishga qaratilgan "Yashil makon" umummilliy loyihasini kengaytirish kabi muhim chora-tadbirlar belgilangan.

Jumladan, ekologik vaziyatni yaxshilash maqsadida Toshkent shahrida yashil maydonlar hududini 5 barobar ko'paytirib, 5 ming gektarga yetkazish, "Yashil makon" umummilliy loyihasi tashabbuslariga mos

tarzda 10 ta hududda aerobiologik monitoring tizimini yo'lga qo'yish hamda shahar va tuman markazlarida har 50-100 ming aholi uchun jamoat parklari tashkil etish, o'rmonlar maydonini kengaytirish rejalashtirilgan.

Orolbo'yi mintaqasidagi o'rmonzorlarni 2,3 million gektarga yetkazish, Orol dengizi qurigan tubida qo'shimcha 600 ming gektar yashil maydon barpo etib, ularning umumiy hajmini 2,6 million gektarga yoki hududning 80 foiziga yetkazish, "Yashil iqlim" va Global ekologik jamg'armalarning bioxilma-xillik, iqlim o'zgarishi va tuproq yemirilishining oldini olishga qaratilgan dasturlari asosida 300 million dollar qiymatidagi loyihalarni amalga oshirish hamda xalqaro hamkorlar bilan Orol dengizi havzasining quyi oqimidagi degradatsiyaga uchragan yerlar holatini yaxshilashga oid loyihani amalga oshirish ko'zda tutilgan. Bu jarayonda nafaqat milliy, balki mintaqaviy darajada barqaror taraqqiyot va farovonlikni ta'minlash, cho'llanish, qurg'oqchilik, chang-qum bo'ronlari va harorat ko'tarilishi, biologik xilma-xillikni asrashga oid keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

"Yashil" iqtisodiyotga o'tish, bu jarayonda qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish ko'rsatkichini keskin oshirish ushbu strategiya belgilangan ustuvor vazifalardan yana biridir. Buning uchun qayta tiklanuvchi energiya manbalari jami iste'moldagi ulushini 40 foizga yetkazish ko'zda tutilgan. Sanoatda "yashil sertifikat"lar bozorini rivojlantirish va ekologik markirovkalash amaliyotini, ko'p qavatli uylardagi xonadonlarning energiya samaradorligi (energoaudit) ni baholash tizimini joriy etish, shaharlarda jamoat transportini ekologik toza yoqilg'iga o'tkazish, iqlim o'zgarishi sohasida barcha issiqxona gazlarini qamrab oluvchi monitoring tizimini yaratish bilan bog'liq qator vazifalar belgilangan.

Bu yumushlarning o'z vaqtida bajarilishi nafaqat yurtimiz, balki dunyoda inson va tabiat muvosabatlari uy'unlashtirish, ekologik muvozanatni barqarorlashtirish, kelajak avlodlarga tabiatni bezavol yetkazishga zamin yaratadi. Qolaversa, ushbu sa'y-harakatlar O'zbekistonning iqlim o'zgarishiga qarshi kurash bo'yicha umum-bashariy g'oyalarga sodiqligi, sayyora-mizning yanada barqaror, farovon va xavfsiz kelajagini ta'minlash yo'lidagi sobitqadam ekanini namoyon etadi.

Bahor XIDIROVA,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

SHUKUH

BAYRAM YANGI UYLARDA NISHONLANADI

Yakuniga yetayotgan yil ko'plab yurtdoshlarimiz hayotiga muhim o'zgarishlar olib kirgani bilan tarixga muhrlanayapti.



— Chog'roqqina hovlida o'g'illarim, kelinlarim, nevaralarim bilan katta bir oila bo'lib yashardik. Aslida, farzandlarimning yonimda birga yashashi men uchun bag'ri butunlik. Ammo yosh oilalarga to'kis sharoit zarur. Shu bois, ularga alohida uy olishimiz kerak, deb o'ylab qoldim. Yangi uyga kichik o'g'lim oilasi bilan ko'chib o'tdi. Xonadonidagi sharoitlardan juda xotirjam bo'ldim. Eng muhimi, bayramni yangi uyda kutib olish baxti nuridiydalarimga nasib etdi. Nevaralarimning quvonchi hozirdan ichiga sig'mayapti. Yetkazganiga, ko'rsatganiga shukr! — deydi nafaqadagi o'qituvchi Mohima opa Ergashova.

Prezidentimiz 2021-yil yanvar oyida Buxoro viloyatiga tashrifi chog'ida Turkmanistonga chegaradosh hudud — Qorako'l va G'ijduvon tumanlarida "Yangi O'zbekiston" massivlarini qurish bo'yicha topshiriq bergan edi.

Shundan so'ng nafaqat mazkur tumanlar, balki butun viloyat ulkan qurilish maydoniga aylanib ketdi.

— Yangi yil bayrami arafasida viloyatimizda ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga molik qator obyektlar qurib bitkazildi. Aholi talabini qondirish maqsadida 2023-yilda "Yangi O'zbekiston" massivlarida 720 xonadondan iborat 36 ta ko'p qavatli uy barpo etish nazarda tutilgan, — deydi Buxoro viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bosh boshqarmasi bosh-

lig'i Soyib Jumayev. — Bugunga qadar 17 ta ko'p qavatli uy foydalanishga topshirildi. So'nggi 7-yil davomida Buxoro viloyatida qurilish ishlari hajmi bir necha barobar ortib, 2016-yildagi 2,8 trillion so'mdan 2022-yilda 8,4 trillion so'mga, joriy yilning birinchi yarmida esa 4,7 trillion so'mga yetdi. Shu yilning o'zida G'ijduvon va Qorako'l tumanlaridagi "Yangi O'zbekiston" massivlari hamda uy-joyga talab yuqori bo'lgan boshqa hududlarda 2,3 ming kvartiraga ega 87 ta uy-joy barpo etilayotir.

Qorako'l tumanida yaqin-yaqingacha bittagina kinoteatr va xiyobondan bo'lak biror xushmanzara maskan yo'q edi hisob. Butun boshli tuman yillar davomida



e'tiborsizlik sabab ko'rimsiz va fayzsiz manzilga aylanib qolaverdi. Qorako'lning soddagina mehnatkash xalqi esa bu yerda to'kis sharoitlarga ega ko'p qavatli uylar bunyod etilishini, shaharliklardagi barcha qulayliklarga ega uylarda yashashni xayoliga ham keltirmagandi. Faqat so'nggi yillardagi izchil o'zgarishlar va yangi loyihalar chekka tumaniga muhtasham hayot nafasi olib kirdi.

— Bugun Qorako'l ijobiy o'zgarishlar oqimida yuksalib, har jabhada ilg'or va ildamlab borayotgan tumanlardan biri. Zamonaviy jihozlar bilan ta'minlangan o'quv maskanlari, dunyo standartlariga javob beradigan tibbiyot muassasalari, yangilab borayotgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarini sanab adog'iga yetib bo'lmaydi, — deydi Qorako'l tumani hokimi Xurshid Tohirov. — Huddimizda "Yangi O'zbekiston" massivi qad rostladi. Bu inshootlarning aynan yil yakunida topshirilishi qanchadan-qancha oilalarga shod-u xurramilik bag'ishladi. Yangi massivdagi 240 ta xonadonga mo'ljallangan ko'p qavatli 12 ta zamonaviy turar joy majmuasiga oilalar ko'chib o'tdi. Kelgusi besh yil davomida esa bu yerdagi ko'p qavatli uylar soni 70 taga, xonadonlar esa 1400 taga yetkaziladi. O'tgan davr mobaynida massivda 330 o'ringa mo'ljallangan maktab, 240 o'rinni davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti, davlat-xususiy sheriklik asosida yana

120 o'rinni zamonaviy bolalar bog'chasi va yuz qatnovga mo'ljallangan oilaviy poliklinika ham qurib bitkazildi. Joriy yil oktyabr oyida "Yangi O'zbekiston" massivida 53-umumta'lim maktabi ochildi. Ta'lim muassasasida barcha imkoniyatlar mavjud. O'quvchilar uchun kasb-hunar ustaxonalari bilan birga maktab hovlisidagi bo'sh maydonda zamonaviy issiqxonona ham barpo etilgan. Ushbu gidroponik issiqxonona ayni qish pallasida pomidor va boshqa kelbavotlardan mo'l hosil olinmoqda.

Yaqin-yaqingacha bunday sharoit va imkoniyatlarning o'ndan biri ham bo'lmagan esa-da, qorako'lilik o'quvchilar bilimi nafaqat O'zbekiston, balki dunyo miqyosida ham e'tirof qozongandi. Endi esa yangi bunyod etilgan ta'lim muassasalarida to'kis sharoitlar bisyor.

— Yangi turmush mahallasidan bu shaharchaga ko'chib keldik. O'qituvchilar sulolasi vakillarimiz. O'zim ham ko'p yillar yoshlarga saboq berib, nafaqaga chiqqanman, — deydi yangi xonadon bekasi Gulshoda Erniyozova. — Ikkinchi guruh nogironiman. Sog'lig'im pand berib turgani bois, tez-tez davolanishga muhtoj edim. Qishloqdan tumanigacha ancha yo'l. Shifoxonaga qatnash bir oz qiyin edi. Turmush o'rtog'im va farzandlarim bilan maslahatlashib, shu yerdan uy sotib olishga qaror qildik. Bahosi 280 million so'm bo'lgan ikki xonali xonadonni 32 million so'm boshlang'ich to'lovini to'lab xarid qildik. Qolgan 20-yil muddatga kredit shartnomasi asosida to'lanadi. Yangi O'zbekiston uylari o'z nomiga munosib bo'lishiga ishonaman.

Yana bir yangilik. Massivga tutash hududda "Qorako'l" erkin iqtisodiy zonasi tashkil etilib, bu yerda qiymati 4 milliard AQSH dollariga teng istiqbolli biznes loyihalari joylashtirilmoqda. Umuman, Qorako'l tumanining tom ma'nodagi kelajagi bo'ladigan mazkur loyihalar ro'yobi tufayli hududda o'nlab oilalar moddiy manfaatdorligi ta'minlanadi. Yangi yil eshik qoqib, bayram nafasi ufurib turgan pallada chekka va olis manzillarda qad rostlayotgan yangi inshootlar hududlar me'moriy qiyofasini o'zgartiribgina qolmay, aholi turmush darajasi yanada yaxshilanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Gulichehra DURDIYEVA,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

INSON QADRI UCHUN

IJTIMOYIY ADOLAT AHOLINING FAROVON TURMUSHINI KAFOLATLAMOQDA

Joriy yilning oxirigacha Jizzax viloyatining beshta tumanida chin yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan 30 bola barcha sharoitlarga ega uy-joy bilan ta'minlanadi.



Bu ishlar Prezidentimizning 2021-yil 9-avgustdagi "Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ijrosi doirasida amalga oshirilmoqda.

— Yil boshidan buyon uy-joyga ega bo'lmagan 20 nafar yetim bolaga beg'araz tarzda uy-joy topshirdik. Yangi xonadon egalari quvonchi bir olam, — deydi Jizzax viloyati hokimligi bolalarni himoya qilish masalalari kotibiyati mudiri Dilbar Pardayeva.

Amasoy tumanida uy-joyga muhtoj, homiylikka olingan yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan Jasur Qo'chqorova 1 xonali uy berildi va jihozlandi.

— Bugun quvonchimni so'z bilan ifodalash qiyin. Hayajondaman, — deydi Jasur. — Baxtsiz voqea sabab men, akam va singlim ota-onamdan barvaqt ajralib qoldik. Bobom va tog'amlar vasiyiligidagina voyaga yetdik. Biz kabi muhtojlarga, umuman, yoshlarga qaratilayotgan yuksak e'tiborni hamisha his qilib yashayman. Akam Jizzax davlat pedagogika universiteti to'rtinchi kursida, o'zim Toshkent axborot texnologiyalari universiteti ikkinchi kursida, singlim esa Jizzax davlat politexnika instituti huzuridagi litseyda tahsil oladi. Nasib qilsa, o'qishlarimni bitirib, yetuk mutaxassislar bo'lib, yurtimiz ravnaqiga xizmat qilamiz.

— Farzand faqatgina ota-onasining bag'rida shodon yashaydi, — deya gapga

qo'shildi Jasurning bobosi Anvar Ismoilov. — Ammo hayot sinovlardan iborat. Taqdir ekan, uch nevaram barvaqt ota-onasidan ajraldi. Ularni o'z qaramog'imga olib, voyaga yetkazdim. O'tgan yili Jasurning akasiga davlat tomonidan ikki xonali uy sovg'a qilingandi, bu yil Jasurga. Yetimning boshini silash eng savobli ish.

O'zbekiston nafaqat insonparvar yurt ekan, balki uning bag'rida turli millat vakillari ahil-inqo, teng huquqli yashashi dunyo hamjamiyati tomonidan e'tirof etilmoqda.

Buni paxtakorlik Konstantin Saprikin hayoti misolida ham ko'rishimiz mumkin. Rus millatiga mansub yigirma uch yoshli bu yigit Jizzax shahridagi sobiq 29-Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchisi. Unga ham Paxtakor shahri markazidan bir xonali, barcha sharoitlarga ega uy berildi.

— 2010-yili ota-onamni yo'qotganimdan buyon davlat qaramog'idaman, — deydi Konstantin. — Mana shunday bag'rikeng yurtda yashayotganimdan faxrlanaman. Agar boshqa yurtda tug'ilganimda, bilmadim, taqdirim nima bo'lardi. To'g'risi, uyli bo'lishni orzu qilardim, ammo bu orzu burchalik tez amalga oshadi, deb o'ylamagandim. Mening uyli bo'lishim mamlakatimizda insonga e'tibor, muhtojlarni qo'llab-quvvatlash borasidagi xalqparvar siyosatning yorqin namunasidir.

Farhod NE'MATOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

BUYUK O'ZBEK YO'LI



Ozodbek NAZARBKOV, O'zbekiston Respublikasi madaniyat vaziri

Davlatimiz rahbari o'z lavozimiga kirishganing dastlabki kunlaridanoq iqtisodiyotni yanada rivojlantirish bo'yicha keng ko'lami...

1526-yilda yuz ming lashkar, shuningdek, jangovar fillarga ega qo'shinni 12 ming askar bilan yengib, Hindistonni zabt etgan Bobur bobomiz so'zlarimizga misol bo'la oladi...

Tarixda qaysiki qo'shin ma'naviy tarqoq, jangchilari ruhiyati, imoni sust, axloqiy darajasi tuban bo'lsa, albatta, ular orasidan biror sotqin chiqqan...

Shu bois, xalqimiz yoshlarni tarbiyalashda, jismini chiniqtirish bilan bir vaqtda ma'naviy-ruhiy barkamoliligiga alohida e'tibor qaratgan. "Bilagi zo'r birni yiqar, bilimi, yuragi zo'r mingni", "Odob — o'lindan qimmat", "Birlashgan o'zar, birlashmagan to'zar" kabi maqollar ana shunday yondashuvlar mahsuli.

Bugungi murakkab zamonda yoshlarni tarbiyalashda teran ildizlardan suv ichgan azaliy qadriyatlarimiz bilan birga, ularni ma'naviy uyg'otadigan, kelajakka ruhlanadigan, ko'ngil ko'zini ochadigan, milliy g'ururini yuksaltiradigan badiiy asarlarga, kino va spektakllarga, diltortar kuy-qo'shiqlarga, amaliy va tasviriy san'at namunalari ehtiyoj toboratib bormoqda.

Prezidentimiz tarixidagi Vatani va xalq taqdiriga nisbatan tahdidlar kuchaygan vaziyatda aynan millat fidoyilari — uyg'oc qalbli ziyolilar, shoir va adiblar, san'at namoyandalari, ma'naviyat va ma'rifat sohosi xodimlari jasorat bilan maydonga chiqqanini ta'kidlar ekan, XX asr boshlarida xalqimizni ozodlik va ilm-ma'rifat uchun kurashga chorlagan jaded bobolarimizni esladi. Mamlakatimiz o'z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadedlar kabi G'arb ilm-fani yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havoddek zarurligini qayd etdi.

Davlatimiz rahbari jadidlar hayoti va bebaho merosiga takror-takror urg'u berayotgani bejiz emas. Bu ulug' insonlar — Vatani uchun fidoyilik, jasorat va matonat timsoli. Ular yangi usuldagi maktablar ochdi, teatrlar tuzdi. Ma'rifatparvar ajdodlarimiz yozgan asarlar, ilgari surgan g'oya va tashabbuslar bugungi kunda yurtimizda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish, xalqimizni zamonaviy ilm-fan yutuqlariga oshno etish, el-yurtga sadoqat va milliy g'urur tuyg'ularini yuksaltirish, umuman, yangi O'zbekistonda hayotbaxsh islohotlarga mazmunan uyg'un va hamohangdir.

Buning birgina isboti — yig'ilishda davlatimiz rahbari barcha korxonaga va muassasalarda o'zining bir kunini "Teatr kuni" deb e'lon qilib, xodimlarning teatrlarga borishini yo'lga qo'yish taklifini bildirdi. Xo'sh, nima uchun? Chunki bugun odamlar teatrlarga bormay qo'yd. Buning sabablari turlicha bo'lishi mumkin. Lekin eng asosiysi...

IZHOR

YANGI KUCH, YANGI HARAKATGA AYLANAYOTGAN MA'NAVIYAT

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining Prezidentimiz raisligida shu yil 22-dekabr kuni o'tkazilgan kengaytirilgan yig'ilishi ma'naviy hayotimizda yangi islohotlar davrini boshlab berishi shubhasiz. Ushbu tarixiy uchrashuvda ma'naviyat, ma'rifat, madaniyat, san'at, adabiyot va ijod sohalaridagi ishlar tanqidiy-tahliliy muhokama qilinib, kelgusidagi ustuvor vazifalar belgilab berildi.



— yurtdoshlarimizning jaded bobolarimiz ibratxona deb atagan noyob san'atdan — teatrdan uzoqlashgani. Zero, bugun ham ko'rishga arzigulik, tomoshabinni hayotning mohiyati, umuminsoniy tuyg'ular, umrboqiy tushunchalar, kundalik muammolar va ularning yechimlari haqida o'ylashga, mushohada yuritishga chorlaydigan sahna asarlari yaratilayotgani. Ammo ommaning madaniy saviyasi bu spektakllarni qabul qilmayapti. Internet saytlari va ijtimoiy tarmoqlarga joylanayotgan yengil-yelpi videolar hamda chinakam ma'rifiy mediamahsulotlarni tomosha qiluvchilar soni taqqoslanasa, ko'p narsa oydinlashadi-qoladi.

Taassufki, internetda saviyasiz, ba'zan mentalitetimizga, milliy axloqimizga to'g'ri kelmaydigan materiallar, televizorda oldi-qochdi seriallar, maza-matrasiz shoular ko'raverib, odamlarimizning badiiy didi o'tmaslashib bormoqda.

Bugun ommaga tortiq etayotgan mahsulotlarini oila davrasida ko'rishga xijolat bo'ladigan ayrim guruhlarimiz konsertlariga yurtdoshlarimizning ko'pchiligi katta qiziqish bilan borib, chiptalarini falon pulga sotib olib, tomosha qilmoqda. Biroq ular davralarda "Mutasaddi tashkilotlar qayerga qarayapti?", "Ijodkorlarimizning saviyasi pasayib ketdi" kabi gap-so'zlarni aytib yuradi. Bunday kishilarga "Baraka topgur, oxirgi marta qachon teatrga tushdingiz?" deb so'rasangiz, javob berolmay kalovlanib qoladi.

Biz yengil-yelpi tomoshalar ortidan pul topayotgan guruhlar konsertlariga tushib, o'zimiz ularni rag'batlantirayapmiz. Keyingi



faoliyatiga moddiy ko'mak beryapmiz. Axir ularning konsertlariga hech kim tushmasa, keyingi yil ular o'sha tadbirni qayta uyushtirmaydi, moddiy ziyon sari qadam tashlamaydi. Bu so'zlar bilan bugun teatr sohasida hamma ishlarimiz a'lo, demovochi emasman. Sohaga zamonaviy texnika-texnologiyalarini tatbiq etish, o'ziga xos dekoratsiyalar olib kirish, marketingning jozibador usul va uslublaridan foydalanib, tomoshabinlar diqqat-e'tiborini tortish galdagi vazifalarimiz qatoriga kiradi. Lekin aytish mumkinki, ularsiz ham spektakllarimiz saviyasiz bo'lib qolmaydi, teatr yuragimizga, jamiyatimizga tutilgan oyna bo'lib qolaveradi. Qalbimizni ulg'aytirib, ruhiyatimizni boyitaveradi.

Prezidentimiz mana shu holatni chuqur his qilib, xalqimizni teatrga qaytarish uchun qator choralarini belgilab berdi. Rahbar-yetakchilar bu borada, umuman, ijtimoiy dunyoqarash, madaniy saviya bo'yicha boshqalarga o'rnak bo'lishi kerakligini uqtirdi. Xonandalarning saviyasiz kliplari, qo'shiqlari, maishiy mavzudagi seriallar, filmlarning kundan-kun ko'payib borayotgani haqida ham yuqoridagi kabi fikrlarni aytish mumkin. Haqiqiy san'at asarining yaratilishi uchun uni o'sha darajada tushunadigan, qabul qiladigan auditoriya ham bo'lishi kerak. Nimaga ko'pchilimiz maqomni eshitmaymiz? Chunki uning mohiyatini tushunmaymiz, zamiridagi dardni his qilmaymiz, demak, maroq ham olmaymiz. Bu navolar qalbimizga yetib borishi, ularning mazmunini tushunishimiz uchun kitob o'qishimiz, bilimimizni boyitishimiz, badiiy didimizni yuksaltirishimiz kerak.

Keyingi yillarda ko'hna va boqiy navolarimizni xalqimizga yanada kengroq tanishtirish, dunyo miqyosida targ'ib etish bo'yicha salmoqli ishlar qilinadi. Xalqaro maqom san'ati anjumani, Xalqaro baxshichilik san'ati, "Sharq taronalari", "Buyuk ipak yo'li" hamda "Raqs sehri" xalqaro festivalarini an'anaviy tarzda o'tkazish yo'lga qo'yilgani, o'ylaymanki, o'zlikka qaytish borasida dadil qadamlardir.

Endi maqom va baxshichilik san'atini rivojlantirish, mavjud ijro va ijodiy maktablarni, bu

boradagi an'analarni ilmiy asosda o'rganish va qayta tiklash ishlari yanada kuchaytiriladi. Hozirgacha 120 ta maqom, baxshichilik dostonlari, xalq kuyi va qo'shiqlari "oltin fond"ga yozib olindi. Prezidentimiz maqom san'atini rivojlantirish, uni qorong'ilikdan yorug'likka olib chiqish yo'lida jonbozlik ko'rsatayotgan san'atkorlarimizga har qancha rahmat aytasak, arzishini alohida ta'kidlagani bekorga emas. Zero, ushbu bebaho san'atimiz negizida chuqur falsafa, betakror obrazlar mujassamdir. Shu bois, bu sohir navolar tinglovchini dunyoni teran idrok etishga, obrazlar, taassurotlar vositasida mukammallikka intilishga undaydi.

Taraqqiyotimizning yangi davrida noyob san'atimiz namunasi bo'lgan baxshichilik qayta tirildi, desak mubolag'a emas. Faqat bayramlarda, rasmiy tadbirlardagina ijro etiladigan bo'lib qolgan dostonu laparlarni bugun hayotimizdan, dilimizdan, tilimizdan qayta joy olmoqda. Respublika baxshichilik san'ati markazi hamda Baxshichilik san'atini rivojlantirish jamg'armasi, hududlarda mazkur yo'nalishdagi ansambllar samarali faoliyat yuritayotgani bu boradagi ishlarda muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. Binobarin, xalq og'zaki ijodiyoti sarchashmasi bo'lgan mo'jizakor san'at insonni inson sifatida namoyon etadigan eng ezgu tuyg'u va qadriyatlarini tarannum etadi.

Kino sohasi keyingi yillarda o'zini tiklab bostayпти. Tan olishimiz kerak, mazkur jabha mustaqillik yillarida ancha oqsab qolgan. Ayniqsa, tarixiy seriallarni suratga olishda ba'zan kulgili holatlarga tushib qolganimiz ham sir emas. Bularning bosh sababi iqtisodga borib taqalardi. Tarixiy filmlarni tasvirlash olish juda murakkab jarayon. Chunki unda foydalaniladigan odiy ignadon tortib, aktyorlarning bosh kiyimigacha — kerakli hamma narsani yo'qdan bor qilish zarur. Negaki ular yo'qolib ketgan. Ularni qayta yasash, tasvirlash olish jarayonida har bir aktyor uchun kerakli kiyimlarni tiklash, tarixiy dekoratsiyalar — bular katta mablag' talab etadi. Mana shu jihatlar hisobga olinib, keyingi yillarda yurtimizda sohani maddiy tomondan qo'llab-quvvatlashga e'tibor berilayпти.

Aslida, kino sanoatining davlat tomonidan rag'batlantirilishi dunyo amaliyotida juda kam uchraydi. Bu tarmoq, asosan, tadbirkorlar qo'lida. Investorlar film olish uchun

katta mablag' ajratadi va shunga yarasha foyda ham ko'radi. Kino mahsulotlari ba'zi davlatlar eksportida salmoqli o'ringa ega. Hatto bu orqali davlat byudjetiga ham katta daromad kelib tushadi.

Bizda hali kino biznesi to'la rivojlanmadi. Bu tarmoqning daromadli ekanini anglab, unga pul tikadigan tadbirkorlar juda kam. Prezidentimiz yig'ilishda bejiz metsenatlik harakatiga alohida ta'xtalmadi. Xorijiy davlatlarda keng yoyilgan, ijodkorlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bu ezgu tajriba bizning hayotimizdan ham chuqur joy olishi zarur.

Ta'kidlanganidek, hozirgi vaqtda "Tirik tarix" seriyasida Vatanimizning shonli o'tmishiga bag'ishlangan 50 ta badiiy film yaratish bo'yicha farmon loyihasi tayyorlanmoqda. Shu asosda tarixiy filmlar yaratish dasturi ishlab chiqiladi. Bu dastur ijrosiga nafaqat mahalliy, balki xorijiy ijodkorlar, kinokompaniyalar hamda investorlar jalb etiladi.

Buxoro, Samarqand, Toshkent viloyatlarida erkin iqtisodiy kinohududlar barpo etish bo'yicha loyihalar boshlanadi. Buyuk ajdodlarimizning ibratli hayot yo'li haqida ko'p qismli animatsion filmlar yaratish masalasi ham ko'tarildi. Davlatimiz rahbari keyinchalik ushbu filmlar qahramonlarini o'yinchoqlar, o'quv dafatlarini va boshqa mahsulotlarda aks ettirib, farzandlarimiz ongiga singdirishimiz lozimligini uqtirdi.

Yig'ilishda madaniy dam olish tizimini takomillashtirish, aholining bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishda mavjud madaniy maktablarni faoliyatini kuchaytirish, xalqaro maydonda o'zbek madaniy diplomatiyasini rivojlantirish, boy madaniy merosimizni xalqimizga va xorijiy sayyohlarga keng tanishtirish ishlari yangi bosqichga ko'tarish, kitobxonlik, tasviriy va amaliy san'at sohasini yanada taraqqiy ettirish, madaniyat va san'at sohasida ta'lim sifatini oshirish hamda boshqa yana ko'plab masalalar bo'yicha qator chora-tadbirlar belgilandi, ularning barchasi bir ulug' maqsadga — jonajon Vatanimiz yuksalishi, jahonda O'zbekistonning tenglar ichra teng bo'lishi, elimizning hech kimdan kam bo'lmay yashashiga xizmat qiladi.

Eng muhimi, ma'naviyat, madaniyat, ma'rifatni rivojlantirish bugun muayyan tashkilotlarning inisa emas, butun xalqimizning ishi, har birmizga tegishli dolzarb vazifa ekaniga urg'u berilayпти. Chunki bu zalvarli yumush hamma birlashsa, jipslashsa, bir yoqadan bosh chiqarib, bir mustoh bo'lib harakat qilsagina yuzaga chiqadi. Bu masalalarga beparvolik, loqaydlik, panja orasidan qarash esa kelajagimizga, el-yurtimiz taqdiriga bepisandlik, hatto xiyonat bilan barobardir.

Chinakam ijod ahli uchun esa yuksak iste'dod va mahoratini ziyo ulashishga safarbar etish, ijtimoiy hayotimizdagi faol ishtiroki bilan yangi Uyg'onish davrini barpo qilishga munosib hissa qo'shish eng ezgu, hayotiy tamoyil bo'lib qolaveradi. Zotan, Prezidentimiz ta'kidlanganidek, bugun ma'naviyat boshqa sohalaridan o'n qadam oldinda yurishi kerak, ma'naviyat yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi shart!

MAKTAB O'QITUVCHISI ILK BOR "YIL AYOLI" BO'LDI

BU YURTIMIZDA TA'LIMGA QARATILAYOTGAN YUKSAK E'TIBOR NAMUNASIDIR

Keyingi yillarda mamlakatimiz ta'lim tizimida keng ko'lami islohotlar amalga oshirilayotganiga barchamiz guvohmiz. Aytmoqchi bo'lganimiz, bu boradagi sa'y-harakatlar o'z samarasini bera boshladi. Yigit-qizlarimizning har sohada erishayotgan yutuqlari, orzu-havasarlari va ilimga intilishlari ham fikrimiz tasdig'idir.



Bu o'z-o'zidan bo'lib qolmadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning bevosita e'tibori va qo'llab-quvvatlovi bilan jamiyatda o'qituvchining nufuzi, obro'-e'tibori yuksaldi. Inson kapitaliga kiritilayotgan investitsiya miqdori keskin oshdi. Ta'limga yangicha yondashuvlar joriy etilmoqda.

Pirovardida o'qituvchi-murabbiylarning intilishlari, sifati ta'lim berish yo'lidagi maqsadlari qat'iylashdi. Jamiyatda faol ziyolilar qatlami shakllandi. Buni jizzaxlik o'qituvchi Ro'zigul Orziqulova joriy yilda "Yil ayoli" milliy ko'rik-tanlovi g'olibi bo'lgani misolida ham ko'rishimiz mumkin. Ta'kidlash joiz, mazkur tanlovda ilk bor maktab o'qituvchisi g'oliblikni qo'lga kiritdi. Quyida Ro'zigul Orziqulovaning qisqacha hayot yo'li, tanlov haqidagi fikrlari, kelgusi reja va maqsadlari bilan tanishasiz.

Yangi yil arafasida Oliy Majlis Senati hamda Oila va xotin-qizlar qo'mitasi tomonidan o'tkazilgan "Yil ayoli" milliy ko'rik-tanlovi g'olibasi bo'ldim. Senat raisi qo'lidan Prezident sovg'asi — avtomobil kalitini qabul qilib oldim. To'g'risi, bu men uchun yangi yil arafasida

eng zo'r sovg'a bo'ldi. Zero, oddiy qishloqda tug'ilgan mendek o'qituvchi ayol uchun bu chinakam baxt. O'sha paytdagi quvonchimni so'z bilan ifodalash qiyin. Birdan bolaligim, yaqinlarim, ustozlarim, onanming meni o'qishga kuzatib, "Qizim, Yaratganning panohida bo'li,

yaxshi o'qi, odobli bo'li, sendan umidim katta, yuzimzni yorug' qil", degan nasihat duolari xayolimga keldi.

Hozir Sharof Rashidov tumanida yashasam-da, aslida, Forish tumanining tog'li

Porasht qishlog'ida tug'ilganman. Besh yoshligimda otam dunyodan o'tgan. Umurbek amakimning qo'lida tarbiya topganman. Qishlog'imizdagi 13-o'rta maktabni oltin medal bilan bitirganimdan keyin onam va amakimga

o'qishga borishimni aytdim. Ular, to'g'risi, qarshilik qilgan. O'sha paytlarda qizlarning o'qishiga hozirgidek e'tibor yo'q edi. Yaqinlarimni tushunaman, ular ham meni o'ylab, shaharda qiynalmasimgimni istagan. Ularga qarorim qat'iyilgini, faqat rozilik va duolari kerakligini, maktabimizda o'qituvchilarni yetishmasligi, kelib bolalarga dars berishimni tushuntirdim. Amakim qarindoshlarimiz, ustozlarim bilan maslahatlashib, o'qishga borishimga rozilik berdi.

Jizzax pedagogika bilim yurtiga o'qishga kirib, muvaffaqiyatli tugatdim. Ammo qishlog'imdagi maktabda dars berish nasib qilmadi. Taqdirim jizzaxlik yigit bilan bog'landi. Turmush o'rtog'im, oilasining qo'llab-quvvatiga o'qishga kirdim. Olti farzandli bo'ldik. Ammo erim barvaqt olamdan o'tdi. To'rt o'g'il, ikki qizni voyaga yetkazdim. Hayot sinovlarida toblandim. Mehnat faoliyatimni dastlab Sharof Rashidov tumanidagi 25-umumta'lim maktabida boshladim, 2003-yildan hozirgacha Jizzax shahridagi 26-maktabda davom ettirayapman.

17 nabira va 4 evaraning duogo'y buvisiman. Yaratganga shukr, baxtli ayolman. Axir, O'zbekistonning yil ayoli, degan sharafli nomga sazovor bo'ldim. Ushbu muvaffaqiyat zim-mamga yanada katta mas'uliyat yukladi. Buni qirg' sakizz yillik pedagogik mehnatlarimning e'tirofi deb bildim.

To'g'risi, shu darajaga yetishganimga ba'zan o'zimning ham ishgomim kelmaydi. Bunday tanlovlarga uncha ishonmasdim, tanish-bilishchilik bo'lsa kerak, deb o'ylardim. Mana haqiqat bor ekan, mendek oddiy bir qishloq ayoli "Yil ayoli" tanlovi g'olibasi bo'ldim. Fursatdan foydalanib, barcha ayollarimizni shunday tanlovlarda faol ishtirok etishga da'vat etaman.

Yurtimizda ta'limga e'tibor, o'qituvchilarga munosabat o'zgardi. Mana shuning o'zi yangi O'zbekistonda xalqparvar siyosatning yorqin namunasidir.

Mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratish asosiy maqsad qilib belgilandi. Bu milliy g'oyani ro'yobga qichqarishga bilimni va zukko shogirdlar tayyorlash orqali o'z hissamini qo'shmoqchiman.

Ro'zigul ORZIQULOVA, Jizzax shahridagi 26-umumta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi

DOLZARB MAVZU

Ko'zgu

BANK KARTALARIDAN YECHIB OLINAYOTGAN PULLAR

Fuqarolarning e'tirozlariga qanday yechimlar taklif etilyapti?

Bank xizmatlaridan foydalanish, ayniqsa, kredit olish tizimi soddalashib boryapti. Oramizda bir vaqtning o'zida bir nechta kredit olganlar bor. Amaliyotga muddatli to'lov, degan tushunchalar ham kirib keldi. Maishiy texnikadan tortib, kiyim-kechak, oziq-ovqatlar ham "hozir olib, keyin to'lash" imkoniyati mavjud. Bularning barchasi yurtdoshlarimizga qulaylik yaratyapti. Ammo yagona talab — olingan qarzlarni o'z vaqtida to'lab borish kerak. Aks holda, bank yoki nobank tashkilotlari bilan mijoz o'rtasida muammolar kelib chiqishi hech gap emas.

Bank kartalaridan qandaydir qarzdorlik uchun avtomatik tarzda pul yechib olinayotgani, nima uchun yechilgan ko'rsatilmayotgani bilan bog'liq shikoyatlar kelib chiqayotgani ham ayni shu masala bilan bog'liq. Banklar kredit olgan fuqarolar qarzni o'z vaqtida to'lama-gani uchun u yoki kafil shaxslarning bank kartalaridan hech qanday ogohlantirishsiz, avtomatik ravishda pul yechib olishi holatlari ko'paygan.

Shu bois, Markaziy bank yurtimizdagi tijorat banklari va nobank tashkilotlardan "mijozning rozilgisiz va uni ogohlantirmagan holda uning kartasidan kredit va boshqa qarz to'lovlari uchun mablag'larni akseptsiz yechib olish" amaliyotiga shartnomada nazarda tutilmagan holatda chek qo'yishni qat'iylab talab qilmoqda. Joriy yil 21-dekabr kuni Markaziy bank boshqaruvi raisi o'rnbosari tomonidan shu mazmunda imzolangan tegishli ko'rsatma xati tijorat banklari, to'lov tizimi operatorlari va to'lov tashkilotlariga yuborilgan. Markaziy bank To'lov tizimi departamenti boshqar-ma boshlig'i Xushvaqt AZIZOV bilan ushbu xat mazmuni va muammoni bar-taraf etish bo'yicha ko'rsatilgan talablar haqida suhbatlashdik.

Ko'rsatma xatida tijorat banklari va to'lov tizimi operatorlaridan kredit yoki kafil fuqarolarning bank kartalaridan shartnomada ko'rsatmasdan, ularning rozilgisiz qarzdorlik to'lovlari avtomatik tarzda yechilib, qoplanmasligi borasi-da nazorat o'rnatish talab qilingan, — deydi mutaxassis. — Oxirgi vaqtlarda ayni shu masala bo'yicha fuqarolarning murojaatlari kelib tushmoqda. Haqli e'tirozlarga sabab bo'layotgan omillar esa bir qancha. Jumladan, kredit olgan fuqarolarning bank kartalaridan avtomatik tarzda pul yechilib, bu haqda ularga aniq va to'liq ma'lumot berilmayotir. Ya'ni kreditorga kartangizdan falon so'm pul yechib olindi, degan SMS xabar keladi. Ammo pul nima uchun, qaysi raqamli kreditni qoplashga yechib olingani haqida aytilmaydi. Natijada fuqarolar pullari



bank kartalari bir yoki bir nechta bo'lishi mumkin. Buni tijorat banki va mijoz o'zaro kelishadi. Agar mijoz avtomatik to'lov uchun o'z nomidagi barcha kartalarni kiritsa, ulardan pul mablag'i yechib olinishi mumkin, aks holda, faqat kiritilgan bitta kartadan to'lov olinishi shart.

Kafil shaxslar masalasida ham shunday talablar qo'yilgan. Qonuniy jihatdan kafil bilan bank o'rtasida tuzilgan shartnomada barchasi ko'rsatilishi, kreditor o'z majburiyatini bajarolmay qolganida kafildan undirilishi belgilangan bo'lishi kerak. To'lov muddati va boshqa talablarning bari shartnomada ko'rsatilishi shart. Bu talablar naafaqt bank kreditlari, balki boshqa moliyaviy xizmatlarga ham oid.

— Qonunchilikka ko'ra, fuqarolarning kartasidagi mablag' qaysi holatlarda uning ruxsatsiz yechib olinishi mumkin?

— Bunga faqat Fuqarolik kodeksi yoki qonunlarda, bank bilan mijoz o'rtasidagi shartnomada nazarda tutilgan hollarda hamda sud qaroriga asos bo'la oladi. Ya'ni muddati o'tib ketgan qarzdorlik, aliment to'lovlari, soliq oldidagi majburiyatlar bajarilmagan va boshqa holatlarda Majburiy ijro byurosi

Biz tijorat banklariga ko'rsatma berdikki, fuqarolar o'flayn yoki onlayn ravishda kredit olishidan qat'i nazar, oferta shartnoma tuzilib, unda qarz oluvchining aynan qaysi kartasidan to'lov uchun avtomatik ravishda mablag' yechib olinishi ko'rsatilishi shart.

firibgarlarning qo'liga tushib qolganidan xavotirlanib murojaatlar qilmoqda. Aniqlashtirilganda esa mablag' mavjud kredit qarzdorligi uchun avtomatik yechib olingan bo'ladi.

Yana bir jiddiy masala fuqarolar nomidagi bir nechta kartadan kredit qarzdorligi uchun pul yechib olinayotgani bilan bog'liq. Ya'ni kredit oluvchilarning bank to'lovlari uchun belgilangan kartasida mablag' bo'lmagan taqdirda, uning nomidagi boshqa kartalardan to'lov uchun avtomatik tarzda pul mablag'lari undirilayotgan holatlar kuzatilyapti. Vaholanki, ko'p hollarda bank bilan tuzilgan shartnomalarda to'lov uchun fuqarolarning barcha tijorat banklari-da ochilgan hisob varaqlaridan (to'lov kartasi, omonatlar) avtomatik tarzda qarzdorlikni undirish belgilangan. Shu bois, biz tijorat banklariga ko'rsatma berdikki, fuqarolar o'flayn yoki onlayn ravishda kredit olishidan qat'i nazar, oferta shartnoma tuzilib, unda qarz oluvchining aynan qaysi kartasidan to'lov uchun avtomatik ravishda mablag' yechib olinishi ko'rsatilishi shart. Bunda

yoki tergov yoxud sud qarori, shuningdek, mijoz bilan tuzilgan shartnomada ko'zda tutilgan hollar bilan fuqaroning bank kartasidan mablag'lar karta egasining ruxsatsiz, avtomatik yechib olinishi mumkin. Boshqa vaqtda esa karta egasining ruxsatsiz pul yechib olinishi noqonuniy harakat sanaladi. Hatto tijorat banklari ham qarzdorlik uchun shartnomada ko'rsatilmagan kartadan fuqaroning ruxsatsiz mablag' yechib olishga haqli emas.

Shartnomada ko'rsatilgan taqdirda ham kartadan mablag' avtomatik yechib olinganida sabablari aniq ko'rsatilishi kerak. Yuqorida ta'kidlaganimdek, shu masalada fuqarolardan ko'plab e'tirozlar tushmoqda.

Shundan kelib chiqib, biz tijorat banklari, to'lov operatorlariga fuqarolarning bank kartasidan to'lov uchun pul yechib olingani haqida SMS xabar-noma yuborilganida, aynan qaysi kredit va muddatli to'lov uchun yechib olingani, shartnoma raqami, tashkilot nomi va boshqa ma'lumotlar aniq keltirilishi zarurligi talabini qo'ydik. Shuningdek,

Ko'p hollarda bank bilan tuzilgan shartnomalarda to'lov uchun fuqarolarning barcha tijorat banklarida ochilgan hisob varaqlaridan (to'lov kartasi, omonatlar) avtomatik tarzda qarzdorlikni undirish belgilangan.

Markaziy bankning 2018-yil 2-iyulda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan "Bank xizmatlari iste'molchilari bilan o'zaro munosabatlarni amalga oshirishda tijorat banklarining faoliyatiga qo'yiladigan minimal talablar to'g'risida"gi nizomga muvofiq, bank tomonidan kredit, mikro-qarz va lizing bo'yicha qarzdorliklarni so'ndirishda avtomatik usulidan foydalanilganda, bank keyingi ish kuni hisob-varaqa (omonat, karta) egasiga mablag' qanday sabablarga asosan va kimning foydasiga chiqarilganini ko'rsatgan holda xabarnoma yuborishi shartligi e'latib o'tilgan.

Yana bir masala, hozir raqamli banklar rivojlanib, mobil ilovalar orqali kredit olish imkoniyatlari yaratilgan. Rasmiylashtirish jarayonlarida odatda qarz oluvchi fuqarodan tashqari bir necha yaqinining mobil raqami ham so'raladi. Mijoz ularni kiritgach, o'sha



USHBU QR-KOD ORQALI VIDEOGA O'TING.

insonlar o'zi xabardor bo'lmagan holda bevosita kafilga aylanadi. Qarz olgan shaxs kreditni o'z vaqtida qaytarmasa, uning tanishiga bank tomonidan murojaatlar qilina boshlaydi. O'sha odam o'zi xabardor bo'lmagan masala uchun qayta-qayta bezovta qilinadi. Shu bois, biz fuqaroning o'zidan tashqari boshqa tanishining mobil raqami kiritilganida, u ham SMS xabarnoma orqali xabardor qilinishi va rozilgini olgan holda kreditni rasmiylashtirish talabini qo'ydik. Bu bilan kredit olgan shaxs to'lovni o'z vaqtida to'lay olmasa, boshqa aloqador bo'lmagan shaxslarni bezovta qilmaslik holatlarini nazarda tutganmiz.

— Oxirgi vaqtlarda fuqarolarning bank kartalaridan turli usullar orqali mablag'larni noqonuniy yechib olish bilan bog'liq firibgarliklar ko'paygan. Bu borada qanday choralar ko'rilmoqda?

— Hozir bu eng dolzarb va fuqarolarning ko'plab murojaatlariga sabab bo'layotgan masalalardan biri. Ko'rsatma xatida bu ham e'tiborga olingan. Ya'ni tijorat banklariga firibgarliklarning oldini olish uchun himoya tizimini kuchaytirish bo'yicha ko'pgina talablar qo'ydik. Shulardan biri biometrik identifikatsiya (Face ID) mexanizmini keng qo'llash bilan bog'liq. Bunda tijorat banklari va to'lov tashkilotlari mobil ilovadan foydalanuvchi sifatida ro'yxatdan o'tishda, mobil ilovaga bank kartalarini birlashtirishda, mikroqarz, kredit rasmiylashtirishda mijozlarni identifikatsiyalash uchun qo'shimcha tarzda Face ID mexanizmini qo'llashi nazarda tutilgan.

Biroq bu ushbu amaliyotlardan foydalanish yanada murakkablashadi, degani emas. Odamlarda endi kredit olam, har gal uni so'ndirish uchun roziligim olinar ekan, amaliyotlar qiyinlashar ekan, de-

gan fikrlar bo'lmasligi kerak. Shunchaki dasturiy himoya tizimlari yanada mustahkamlanishi nazarda tutilgan va bunda fuqarolarning ham qisman ishtiroki bo'ladi. Ular jarayonda Face ID va boshqa himoyalovchi tizimlarni o'z vaqtida, to'g'ri qo'llashi kifoya. Qolaversa, moliyaviy savodxonlikni oshirish, yuborilgan har qanday ilovaga kirmaslik, ularni tarqatishda ishtirok etmaslik kabi jihatlarga e'tiborlroq bo'lish firibgarliklar bilan bog'liq muammolar kelib chiqishini oldini olishga xizmat qiladi.

Face ID raqamli identifikatsiya tizimining afzalliklaridan yana biri fuqarolarning mobil ilovalari orqali begona shaxslar tomonidan kreditlar rasmiylashtirilishiga yo'l qo'yilmasligida. Oxirgi vaqtlarda bu masalada ham murojaatlar soni ortgan. Ya'ni fuqarolar telefon apparatini sotgan, yo'qotib qo'ygan yoki identifikatsiya ma'lumotlarining oshkor qilinishi natijasida ularning bank mobil ilovasiga begonalar kirib yoxud ma'lumotlaridan foydalanib, kredit rasmiylashtirayotgan vaziyatlar uchrayapti. Zamonaviy himoya tizimi esa ana shunday holatlarning oldini olishga qaratilgan.

Shuningdek, ko'rsatma xatida ayrim banklar kredit ta'minoti sifatida sug'urta polisi olayotgani bois, ushbu kreditlar belgilangan muddatda qaytarilmagan taqdirda, sug'urta tashkiloti tijorat bankiga kredit qarzdorligini to'liq qoplab berayotgani, natijada bankning majburiyat bo'yicha qarz oluvchiga bo'lgan huquqlari sug'urta tashkilotiga o'tgani uchun, sug'urta tashkiloti qarz oluvchining bank kartalaridan mablag'larni akseptsiz tarzda yechib olayotgan holatlar tanqid qilingan. Vaholanki, qarz oluvchi bilan sug'urta tashkiloti o'rtasida

qarz oluvchining bank kartalaridan mablag'larni akseptsiz tarzda yechib olish yuzasidan shartnoma tuzilmagan va bunday huquqning nobank tashkilotlariga berilishi qonunchilikda ham ko'zda tutilmagan. Fuqarolik kodeksiga ko'ra, mijozning topshirig'isiz hisobvaraqa turgan pul mablag'larini o'chirishga sudning qarori bilan, shuningdek, ushbu kodeksda yoki boshqa qonunda belgilab qo'yilgan yoxud bank bilan mijoz o'rtasidagi shartnomada nazarda tutilgan hollardagina yo'l qo'yiladi.

Bundan tashqari, ayrim to'lov tashkilotlari sug'urta tashkilotlarini "E-POS" maxsus terminalari bilan ta'minlagani natijasida ularga qarz oluvchilarning bank kartalaridan mablag'ni akseptsiz tarzda yechib olishga imkon yaratib berilgan. Bu esa fuqarolar bank kartalaridan foydalanmasligi yoki karta hisobvarag'ida pul saqlamasligiga olib kelmoqda. Tijorat banklari tomonidan fuqarolarning bank kartalaridan pul mablag'larini ushbu bank kartalari egalari huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlamagan holda hisobdan chiqarilishiga yo'l qo'yilgani faktlari iste'molchilar huquqlarining buzilishi deb baholanadi hamda bunday qoidabuzarliklarga yo'l qo'ygan tijorat banklariga nisbatan qonunchilikda belgilangan tartibda chora ko'rilishiga sabab bo'ladi.

Ko'rsatma xatida shu kabi talablar qat'iyl belgilangan. Markaziy bank yuqoridagi topshiriqlar ijrosi nazorat borasida tijorat banklariga yil oxiriga qadar hisobot taqdim etilishi talabini ham qo'ygan. Aks holda, tijorat banklari qonunchilikka muvofiq jarima sanksiyalari qo'llanilishi mumkinligi to'g'risida ogohlantirilgan.

"Yangi O'zbekiston" muxbiri Iroda TOSHMATOVA suhbatlashdi.

Orolbo'yi EKOLOGIYASINING INNOVATSION POSBONLARI

Bir vaqtlar qovjirab yotgan yer, qaqrangan cho'lda hayot qaynayotganini ko'rganda xayolimizdan "tabiat go'zallikni sevadi", degan fikr o'tadi. Orol fojiasini yumshatishga qaratilgan choratadbirlarning puxta o'ylangani va yaxshi samara berayotganini qumloq joyda ham bemalol ildiz otib, bo'y cho'zgan o'simliklar misolida ko'rish mumkin.

YANGIHA YONDASHUVLAR



Davlatimiz rahbari zamonaviy ilm-fan yangiliklarini safarbar etib, mintaqadagi ekohalokat oqibatlarini yumshatish va ke-lajakda sodir bo'lishi taxmin qilingan boshqa tabiiy ofatlarning oldini olish maqsadida 2018-yil 16-oktabrda "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Orolbo'yi xalqaro innovatsiya markazini tashkil etish to'g'risida"gi qarorni imzolagan edi. Hujjat ekotizimni yaxshilash hamda ilg'or tajribalar, yangi loyihalarni joriy etishda muhim dastur bo'ldi. Albatta, bu kabi choralar na-faqat ushbu joyga tutash hududlar, balki butun mintaqaga hayoti uchun muhim. Boisi, kuchli shamol ta'sirida havoga ko'tarilgan tuzli chang bo'ronlari katta hududga ziyon yetkazadi.

— Atrof-muhitga ta'siri katta, uzoq muddatli muammolarni hal qilish uchun innovatsiya va yangicha yondashuvlar talab etiladi, — deydi Orolbo'yi xalqaro innovatsiya markazi direktori o'rinbosari Kamoliddin Idrisov. — Nukus tumanida 24,34 gektar, Mo'ynoq tumanida 106 gektarda tajriba-sinov maydonlari tashkil qilindi, tadqiqot-sinov ishlari o'tkazilmoqda. 50 dan ortiq xorijiy, mahalliy hamkor bilan tuzilgan memorandumlar hamda shartnomalar asosida muayyan ishlar va loyihalar yo'lga qo'yilgan.

Galofitlar ozuqa vazifasini o'taydi, tuproqni tuzdan tozalaydi

Tabiatda nomi qadimgi yunoncha "sho'r" va "o'simlik" so'zlaridan yasalgan galofit, ya'ni sho'rlangan yerlarga moslashgan o'simliklar uchraydi. Muhimi, ulardan qishloq xo'jaligi mahsuloti sifatida foydalanish yaxshi samara beradi. Yaponiya hukumati va Orolbo'yi xalqaro innovatsiya markazi hamkorligida amalga oshirilayotgan "SATREPS — 2020" (Barqaror rivojlanish yo'lidagi ilmiy tadqiqot va texnologik hamkorlik) dasturi ana shunday o'simliklarni ko'paytirish hamda qishloq xo'jaligida foydalanishni nazarda tutadi. Loyiha doirasida galofit dehqonchilik tizimi uchun markerlarga asoslangan seleksiya texnologiyasidan foydalanib, qurg'oqchilikka, issiqlikka va sho'r-ga chidamli, oqsilga boy bahorgi bug'doy navlari yaratilib, galofit o'simliklardan mahalliy chorva yoki parranda uchun yem olish yo'lga qo'yilgan. Yana bir gap, galofitlardan aholi ratsioni uchun mahsulotlar olish borasida ham tadqiqotlar o'tkazilmoqda.



Cho'l sharoitida o'simliklar parvarishi qo'shimcha suv resurslarini talab qiladi, degan tushuncha bor. O'z o'rnida, mazkur o'simliklarni ko'paytirish orqali tabiatga ziyon yetkazilmaydimi, degan savol paydo bo'ladi. Galofit o'simliklarning afzalligi ham shunda, ular aynan sho'rlangan yerda o'sib, ortiqcha suv talab qilmaydi. Ayrimlari o'ziga tuzni tortib olib, tuproqni tozalaydi.

Tuproq kapillyarlari ham inobatga olingan

Markaz tomonidan 10 turdan ortiq tuproq tipini o'rganish va shundan kelib chiqib, ekin turini, sug'orish vaqti va hajmini aniqlash maqsadida maxsus tadqiqot maydonchasi barpo etilgan. Bunday izlanishlar tuproq qatlamidagi suv va tuz muvozanati bo'yicha qimmatli ma'lumotlarni to'plash imkonini beradi. Tuproq ostidan sug'orish sizot, ya'ni yer ostidan sizib chiqadigan suv sathini tuproq kapillyarlari orqali o'simlik ildizi joylashgan qatlama ko'tarishni ang-latadi. Loyiha o'simlik turi va iqlim sharoitidan kelib chiqib, suvni zarur joyda ushlab turish imkonini berishi bilan ahamiyatli.

Tunisning Chahbani Technologies (CHAHTECH SA) kompaniyasi bilan birgalikda tuproq ostidan sug'orish innovatsion

tizimni joriy etish loyihasi BMT Taraqqiyot dasturi bilan hamkorlikda amalga oshirilmoqda. Yomg'irli dehqonchilikni barqarorlashtirishga qaratilgan bunday usullar daryo suvini tejab, qo'shimcha sifatida sizot suvdan foydalanishni nazarda tutadi.

Kraudfanding borasidagi ishlar ham samarali bo'lmoqda

Biz qachon erishilgan natijani qadrlay-miz? Qachonki, o'zimiz mehnat qilib, aqliy salohiyatimizni ishga solsak, mablag' sarflasak. "Orolidagi bog'im" agroekoturizm loyihasida ana shu jihatlarni inobatga olingan. Dunyo hamjamiyati va mahalliy aholini Orol dengizining qurishi oqibatlarini yengib o'tishda qatnashishga undaydigan kraudfanding (aholi tomonidan moliyalashtirish) platformasi ishga tushirilgan. Har bir ishtirokchi o'zi xohlagancho ch'at sotib olib, markaz hududidagi Mo'ynoq ilmiy-hosilot uchastkasiga ekishi mumkin. Hududning barqaror qo'riqlanishi va har bir ekingan niholni parvarishlashga mas'ul xodimlar ajratilgan.

Shuningdek, loyiha doirasida maxsus dastur ishga tushirilgan. Masofadan turib daraxt ko'chati sotib olish va ekishni bosh-qarish mumkin. Qolaversa, qaysi daraxt kinga tegishli ekani haqidagi xabarlar ham joylangan. Nihollar ildiz otib, kutilgan natija-ga erishilgach, ishtirokchilar o'z daraxtlarini Orol dengizi hududiga ko'chirib o'tqazadi. Agar o'zi kelolmasa, markazga nihollarni transportda yuborishi mumkinligi haqida xabar jo'natadi.

Loyiha doirasida Orol dengizining qurigan tubidan ajratilgan 42 gektar maydonga saksovil, qandim, teresken ko'challari ekildi. Xayrli ishga chet ellik sayyohlar, xorijiy korxonalar ham jalb qilingan. Quvonarli, kraudfanding ishtirokchilari soni ortib bormoqda.

Markaz huzurida o'simliklar urug'lari genbanki bilan ta'minlangan laboratoriya, yosh olimlar, tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida biznes-akselerator o'quv markazi va texnopark tashkil qilingani sohada yoshlar ishtirokini yanada kengaytirdi.

— 2021-yilda ImkonLab (UPSHIFT) — ijtimoiy innovatsiyalar va ijtimoiy tadbirkorlik uchun ko'nikmalarni rivojlantirish dasturi ishga tushirilgan edi, — deydi Kamoliddin Idrisov. — Loyiha doirasida Mo'ynoq, Bo'zatov, Qo'ng'iro't va Nukus tumanlari

yoshlariga ijtimoiy startap loyihalar ishlab chiqish bo'yicha bilim egallashga amaliy yordam ko'rsatilmoqda. Yoshlar Orolbo'yi aholisiga yengillik yaratish orqali muam-moning ta'sirini kamaytirishga bel bog'lagan. Bugungi kunda iste'molchilar orasida tobora ommalashib borayotgan mikrokat yetishtirish qulay, sog'liq uchun foydali. Dastur doirasida gidroponika yordamida yopiq joylarda mikrokat yetishtirish startap loyihasi ham yo'lga qo'yilgan. USAID tashkilotining "Orol dengizining qurigan tubi ekotizimini tiklash" (ERAS-II) loyihasi doirasida qo'shimcha komponent — intensiv bog'dorchilikni rivojlantirish va tajriba-sinov maydonchalarini barpo etish loyihasini amalga oshirish bo'yicha kelishuvga erishildi.

Shuningdek, Samanboy tajriba-sinov maydoniga turli mamlakatlardan keltirilgan kinoa, amarant, bufel o'ti, ko'k tariq, donli jo'xori namunalari sinovdan o'tkazilmoqda. Xitoy Fanlar akademiyasiga qarashli Sinszyan Ekologiya va geografiya instituti bilan hamkorlikda Samanboy uchastkasida ekin yetishtirish bo'yicha tajriba-sinov ish-lari amalga oshirilmoqda.

Feruza JO'RAYEVA, "Yangi O'zbekiston" muxbiri



Inson o'z ishtiyoqi, ichki ehtiyojiga ko'ra bilim oladi, mehr qo'yan sohasi sir-asrorini o'rganadi, mohiyatini anglashga urinadi. Bu yo'lni bosib o'tish naqadar mashaqqatli bo'lmasin, har bir qadamdan olinadigan huzur-halovat ham bor. Ilmga intilgan inson kecha-yu kunduz o'qiydi, o'z ustida ishlaydi, tajriba va malaka to'playdi, bu bilimni o'zgalarga ulashadi, nafi tegishini maqsad qiladi. Biroq bu intilish kun kelib, katta e'tiroflarga, katta e'zozga sabab bo'lsa, insonning ilm ortidan hurmat topgani — shu, saodatga erishgani — shu. E'tiborning davlat darajasida bo'lishi esa quvonchdan tashqari, bu yo'lda yanada katta maqsadlarni amalga oshirishga ruhlantiradi, mas'uliyat yuklaydi.

ILMGA INTILISH SAODATGA ELTADI



Shomansur SA'DULLAYEV, O'zbekiston Fanlar akademiyasi O'simlik moddalar kimyosi instituti direktori, akademik

Akademiklar qatoriga qo'shilganini eshitgach, beixtiyor umrim yillari, ortda qolgan mehnatlar ko'z o'ngimdan o'tdi. Kamtarona xizmatlarim Prezidentimiz tomonidan e'tirof etilganidan juda quvondim.

Ish faoliyatimni 1974-yilda O'zR FA O'simlik moddalar kimyosi institutidagi tajriba texnologiya laboratoriyasida avval

katta laborant, so'ng kichik ilmiy xodim lavozimida boshlaganman.

1996-yil mart oyidan institut direktorining ishlab chiqarish va innovatsiya masalalari bo'yicha o'rinbosari, 2006-yil noyabr oyida institut direktori lavozimiga tayinlandim. Mana 17 yildirki, ushbu vazifani siddiqildan bajarib kelyapman. Faoliyatim davomida 400 dan ortiq ilmiy ish yozdim, bularning 100 dan ziyodi nufuzli xalqaro jurnallarda chop etildi. 80 dan ortiq, jumladan, 5 ta ixtiro uchun xalqaro patent oldik.

Bundan tashqari, amaliyotga tatbiq etilgan 20 dan ziyod dori muallifi sifatida O'zbekistonda birinchi bo'lib "Yaxshi ishlab chiqarish amaliyoti (GMP)" sertifikatiga ega tabiiy va sintetik preparatlar substantsiyalarini ishlab chiqarish korxonasini tashkil etdik.

Akademiklik nafaqat unvon, balki mamlakat ilm-fani rivojlanishi yo'lidagi yuksak mas'uliyatni ham anglatadi. Men bu mas'uliyatni to'liq anglagan holda fidoyilik, halollik va xalqimiz manfaatlarini ko'zlab xizmat qilishga jon-jahdim bilan harakat qilaman.

COVID-19 pandemiyasi bilan bog'liq global voqealar har bir davlat o'z farmatsevtik barqarorligini mustahkamlashi zarurati mavjudligini yaqqol namoyon qildi. Demak, farmatsevtik barqarorlikni mustahkamlash kimyo, biologiya va texnologiya

sohalarida chuqur ilmiy tadqiqotlar qilish hamda fundamental tadqiqotlarga asoslangan innovatsion texnologiyalarni qo'llab, ilmiy izlanishlar ko'lamini yanada kengaytirishni talab etadi. Bu borada davlatimiz rahbari tomonidan qator farmon va qarorlar qabul qilingan. Ushbu hujjatlar asosida olimlarimizga ilmiy faoliyat bilan shug'ullanish uchun zamonaviy sharoitlar va imkoniyatlar yaratildi. Natijada ilmiy izlanishlar samaradorligi oshdi.

Misol uchun, Prezidentimiz topshirig'i asosida 1,5 million dollarga Yaponiyaning JEOL kompaniyasining YAMR spektrometri sotib olindi va ishga tushirildi, shu davrda 3,5 mingdan ortiq kimyoviy moddaning tuzilishi isbotlandi. Buning samarasini o'z ichiga olgan ilmiy faoliyat yuritayotgan olimlarning ilmiy natijalarini xalqaro, yuqori impact faktorli jurnallarda maqola shaklida chop etishi bir necha barobar ortdi.

Kelgusida reja va maqsadlarim biologik faol moddalarning farmakologik xususiyatlarini o'rganish holda bakterial va virusli infeksiyalarga, onkologik va yurak-qon-tomir tizimi kasalliklariga qarshi samarali dori-darmonga nomzod birikmalarni izlash, ta'sir mexanizmlarini o'rganish, ishlab chiqarish va ularni amaliyotga tatbiq qilish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni sohaning ustuvor yo'nalishlariga qaratishdan iborat.

SURUR

MEHNATLARING E'TIROFINI KO'RISH – ROHAT

Har qanday inson o'z mehnatining e'tirof etilishidan kuch oladi, ko'ngli ko'tariladi. E'tirof kishini yanada samarali mehnat qilishga, el-yurt ravnaqi, Vatan taraqqiyoti yo'lida fidoyi bo'lishga undaydi, rag'bat beradi. Prezidentimizning "O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 80 yilligi munosabati bilan bir guruh olim va tadqiqotchilarni mukofotlash to'g'risida"gi farmoniga ko'ra "Do'stlik" ordeni bilan mukofotlandim. Bu mukofot menga quvonch bag'ishladi, ruhlantirdi.

Nosir SAIDXONOV, O'zbekiston Fanlar akademiyasi Fizika-texnika instituti ilmiy kotibi, "Do'stlik" ordeni sohibi



Men uzoq yillik ilmiy faoliyatim davomida katta ilmiy jamoada mehnat qildim. Fizik-eksperimentator bir o'zi ishlay olmaydi. Laboratoriya guruhi bilan o'lchovlar o'tkazadi, natijalarni umumlashtiradi, so'ng olingan ma'lumotlarni ilmiy maqola sifatida shakllantirib, chop etish uchun ilmiy nashrlarga yuboradi. Shu bois, menga berilgan orden men bilan ishlagan butun jamoaning mehnati e'tirofi, mukofoti deb bilaman.

Hech bir mulohazasiz aytamanki, davlatimiz rahbarining tashabbusi va qat'iy irodasi tufayli so'nggi yetti yilda ilm-fanga e'tibor juda kuchaydi. Taraqqitib yuborilish arafasida turgan Fanlar akademiyasi saqlab qolindi. Ilm ahliga g'amxo'rlik kuchaydi, maoshlari bir necha marta oshirildi, laboratoriyalarga zamonaviy uskunalar sotib olish uchun yetarli mablag'lar ajratildi, xorijdan jihozlar keltirildi.

Quvonarlisi, Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zolari safi kengaya bordi. Stajyor-tadqiqotchilikka yangi maqom berildi, ularga davlatimiz tomonidan alohida mablag' ajratila boshlandi. Doktoranturaga qabul qilish kvotalari bir necha marta oshdi. Bularning bari o'z samarasini, albatta, beradi, chunki Uchinchi Renes-

sansga shu tariqa mustahkam poydevor qo'yilayotir.

Men 1963-yilda Toshkent davlat universitetining (hozirgi Milliy universitet) fizika fakultetini tugatgach, O'zbekiston FA Yadro fizikasi institutida, 1971-yildan Fizika-texnika institutida kichik ilmiy xodim, katta ilmiy xodim, yetakchi ilmiy xodim sifatida faoliyat yuritdim. 1997-yildan boshlab institut ilmiy kotibi lavozimida ishlab kelmoqdaman.

Butun ilmiy faoliyatim davomida yuqori energiyali zarralar va yadrolarning o'zaro to'qnashuvini o'rganish bilan shug'ullandim. Fotoemulsiya uslubida difraksiyon dissotsiatsiyani o'rganishda dunyoda birinchi bo'lib kerakli hodisalarni saralab olish uchun matematik statistika uslubini

qo'llaganman va shu hodisaning ko'ndalang kesimini topganman. 1977-yilda nomzodlik, 1995-yilda doktorlik dissertatsiyasini himoya qildim, keyinchalik professor ilmiy unvoniga ega bo'dim. Ilmiy ishlarim chuqur fundamental izlanishlar bo'lib, elementar zarralar fizikasidagi bilimlarni chuqurlashtirishga xizmat qiladi. Zarracha va yadrolarning ta'sirlashuv mexanizmlari hali to'liq ochilmagan bir sharoitda bu juda zarur. Ular asosida yangi elementar zarralar kashf qilindi va hali ochilmagan zarrachalarni oldindan aytib berish imkoniyati tug'ildi.

Faoliyatim davomida yurtimizda va xorijiy nashrlarda 200 ga yaqin ilmiy ishlarim chop etildi. Ko'plab xalqaro anjumanlarda ma'ruzalar bilan qatnashib, sekiyalarda raislik qildim. Erishgan ilmiy natijalarim jahon olimlari tomonidan keng tan olinib, yuqori baholangan. Olimlarning faoliyat ko'rsatkichi bo'lgan Xirsh indeksim 18 ga teng. Bu degani, mening ilmiy ishlarimga chet el olimlari tomonidan ko'plab havoalalar berilgan va olgan natijalarimdan foydalanilgan.

Institutda ilmiy kotib sifatida doktorantlarga qo'limdan kelgancha ko'mak beraman. Mamlakatimiz ilm-fani taraqqiyoti uchun zarur yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashga baholi qudrat hissa qo'shyapman, deb hisoblayman. 1997-yildan buyon O'ZMU qoshidagi S.Sirojiddinov nomli akademik litseyda maxsus fan, fizika va astronomiyadan dars berish bilan birga, talabalarning ilmiy ishlariga rahbarlik qilib kelaman.

Tarix haqiqati shuki, qaysi mamlakatda ilm-fanga e'tibor berilsa, zarur sharoit yaratilsa, ilm ahliga g'amxo'rlik ko'rsatilib, mehnatlari rag'batlantirilsa, ilm-fan va ishlab chiqarish o'zaro uyg'un harakat qilsa, o'sha yurtda rivojlanish bo'ladi, iqtisodiyot taraqqiy topadi. Eng muhimi, aholi farovonligi yuksaladi. Yaratganga shukrki, yangi O'zbekiston hozir ayni shu yo'ldan dadil bormoqda. Bu esa Uchinchi Renessansga mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilishi shubhasiz.

TIBBIYOT



FARMATSEVTIKA SOHASIDAGI VAZIFALAR IJROSI ta'minlanyaptimi?

Farmatsevtika zamonaviy tibbiyot rivojida juda muhim rol o'ynaydi. Statistika ma'lumotlar dunyo bo'ylab dori-darmonning nojo'ya ta'siri tufayli har yili o'rtacha yarim million odam halok bo'lishini ko'rsatadi. Buning asosiy sababi esa doridan noto'g'ri foydalanishdir.

Noto'g'ri foydalanish deganda, dori, ayniqsa, antibiotiklarni shifokor ko'rigidan o'tkazmay, tashxislanmagan holatda iste'mol qilish tushuniladi. Mamlakatimiz ham bu muammolardan xoli emas. Biroq bu boradagi statistik ma'lumotlar jamoatchilikka taqdim etilmaydi.

Muammo aniq, yechim esa soha oldiga ilg'or davlatlar tajribasidan samarali foydalanishni, ya'ni retseptsiz va retsept bilan beriladigan dori-darmon ro'yxatini shakllantirish hamda mazkur tartibga qat'iy amal qilinishni ta'minlashni taqozo etadi.

Mazkur masala 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida o'z ifodasini topgan. Prezidentimizning mazkur strategiyani "Insonga e'tibor va sifatlil ta'lim yili" da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risidagi farmoniga ko'ra, mas'ul-lar oldiga xalqaro tajriba asosida mana shunday tartibli ishlab chiqish vazifasi qo'yilgan.

Turli mamlakatlarda dori-darmonni retsept bilan yoki retseptsiz beriladigan toifaga kiritish mezonlari har xil, — deydi "Farmatsevtik mahsulotlar xavfsizligi markazi" davlat muassasasi Farmakologiya qo'mitasi raisi Saidisom Abdullayev. — Shuning uchun bir mamlakatda retseptsiz beriladigan dori boshqa davlatda retsept bo'yicha sotilishi mumkin. Jahon amaliyotida dori-darmonning turli toifalar bo'yicha taqsimlanishi ko'zda tutiladi.

Masalan, Buyuk Britaniyada barcha dori-darmon uch toifaga bo'linadi, ya'ni faqat shifokor retsepti bo'yicha beriladigan dori, faqat dorixonalar orqali retseptsiz hamda umumiy savdo tarmog'i orqali retseptsiz beriladigan dori. Chexiyada esa dori faqat shifokor retsepti bo'yicha beriladigan, retseptsiz berilishiga ruxsat berilgan ro'yxat bo'yicha sotiladigan va dorixonalardan tashqari savdoda beriladigan toifalarga bo'linadi. Belarusda dori-darmon retseptsiz yoki retsept bo'yicha beriladigan toifaga ajratiladi.

O'zbekiston sog'liqni saqlash vazirining Adliya vazirligi tomonidan 2023-yil 4-mayda ro'yxatdan o'tkazilgan "Dori vositalarini retsept bilan va retseptsiz beriladigan dori vositalari toifasiga kiritish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi buyrug'i Prezidentimizning

2022-yil 26-oktabrdagi "Aholini sifatlil dori vositalari va tibbiy buyumlar bilan ta'minlash yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan.

Nizom Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tavsiyalari hamda 2014-yil 23-dekabrda Yevrosiyo iqtisodiy ittifoqi doirasidagi dori vositalari muomalasining yagona prinsiplari va qoidalari bo'yicha kelishuvga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, dori preparatini retseptsiz beriladigan dori preparatlari yoki retsept bo'yicha beriladigan dori preparatlari toifasiga kiritish tartibi va mezonini belgilaydi.

O'zbekiston Sog'liqni saqlash vazirligi rasmiy veb-saytidagi jadvalga muvofiq, davlat reyestriga jami 11 575 nomdagi dori-darmon joylashtirilgan bo'lib, ular-dan retseptsiz beriladiganlari soni 2203 tani, retsept bilan beriladiganlari soni 9372 tani tashkil etadi.

Mas'ullarning bildirishicha, yuqoridagi nomli keltirilgan nizom qabul qilingan kundan e'tiboran, 2016-yil 4-yanvardagi "Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risida"gi qonunning 6-moddasida belgilangan "Retseptsiz beriladigan dori vositalari ro'yxatini yiliga kamida bir marta tasdiqlaydi" tartibi Prezidentning 2022-yil 26-oktabrdagi "Aholini sifatlil dori vositalari va tibbiy buyumlar bilan ta'minlash yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq bekor qilingan.

Ishlab chiqilgan tartibga ko'ra, kelgusida retsept bilan beriladigan dori-darmonni retseptsiz beriladigan dori toifasiga o'zgartirishda elektron yoki yozma shakldagi ariza, dorini tibbiyotda qo'llash bo'yicha yo'riqnom, dorining xavfsizligi bo'yicha ma'lumotlar, shuningdek, dorining qisqacha tavsifi singari hujjatlar taqdim etilishi ko'zda tutilgan.

Bu vazifalarning bekam-ko'st bajarilishi hamda ko'r-ko'ronalikka yo'l qo'yilmagligi, yanada ilg'or tajribalar o'zlashtirilishi kutilmoqda. Zero, samarador farmatsevtika tibbiy xizmatlar sifatini kafolatlashi bilan birga mamlakatning ijtimoiy taraqqiyotiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Jonibek ALIJONOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

SALOMATLIK

SARATON OLDI KASALLIKLARINI O'Z VAQTIDA ANIQLASH DAVOLASH UCHUN VAQT VA IMKON BERADI

Dunyo mamlakatlarida onkologik kasalliklar bilan kasalanish ko'rsatkichlari yil sayin o'sib borayotir. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, onkologik xastaliklar ichida eng ko'p uchraydigan ko'krak bezi saratonidir. Keyingi o'rinlarda esa me'da, o'pka va bachadon bo'yni saratoni turadi.

Bachadon bo'yni saratoni — oldini olish mumkin bo'lgan yagona saraton kasalligidir. Agar kasallik erta aniqlansa, uni davolash uchun vaqt bo'yi berilmaydi, bu esa ijobiy natijaga erishish imkonini mavjud degani.

Mamlakatimizda ayollar salomatligini saqlashga katta e'tibor qaratilmoqda. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatlil ta'lim yili" da amalga oshirishga oid davlat dasturida ayollar orasida reproduktiv organlar xavfli o'sma kasalliklarini erta aniqlash vazifalari yuklatilgan.

Bu borada bajarilayotgan ishlar yuzasidan sog'liqni saqlash vaziri o'rinbosari Elmira Bositxonova quyidagilarni ma'lum qildi:

Bachadon bo'yni saratoni ayollar reproduktiv organlari xavfli o'sma kasalliklarining eng ko'p tarqalgan turidir. Dunyoda yiliga 600 mingdan ortiq ayolda shu kasallik tashxisi qo'yiladi va 300 ming holatda qisqa muddat ichida o'lim bilan yakunlanadi. O'limning aksariyati kech tashxis qo'yilishi natijasidir. Erta aniqlangan va davolanishi boshlangan bachadon bo'yni saratonidan o'lim holatlarini keskin kamaytirish mumkinligi esa dunyo olimlari tomonidan isbotlangan.

Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining 2018-yil may oyidagi ushbu xavfli kasallikni erta aniqlash bo'yicha tezkor choralar ko'rish chaqirig'idan

so'ng bachadon bo'yni saratonining oldini olish hamda asoratlariga yo'l qo'yilmagligi maqsadida 194 mamlakat milliy hujjatlarini qabul qildi.

O'zbekistonda ham ayollarning reproduktiv organlari xavfli o'sma kasalliklarini erta aniqlash borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda.

Statistikaga ko'ra, mamlakatimizda bachadon bo'yni saratoni ayollarda uchraydigan onkologik kasalliklar orasida tarqalishi bo'yicha 2-o'ringda turadi. Xususan, 2022-yilda bu kasallik 1851 ayolda birlamchi aniqlangan va 969 ayol undan vafot etgan. Tahillarga qaraganda, zarur choralar ko'ril-magan taqdirda 2030-yilga kelib, bu kasallik 2100 ayolda birlamchi aniqlanishi hamda o'lim ko'rsatkichi 1300 tagacha ortishi mumkin.

Shu maqsadda barcha tuman va shaharlardagi markaziy ko'p tarmoqli poliklinikalar tarkibida onkonazorat xonalari tashkil etildi. Ular barcha zarur tibbiy asboblardan jihozlandi, onkologik skrining-dan o'tkaziladigan ayollarning yagona elektron bazasi uchun monobloklar bilan ta'minlandi.

O'zbekistonda 2023-yil davomida 3,5 million xotin-qiz onkoskrining tekshiruvidan o'tkazildi. Kasallik aniqlangan 3662 ayoldan 3643 nafari (99 foizi) sog'lomlashtirildi. 2171 nafarida (59,3 foizi) kasallik erta bosqichlarida aniqlanib, har biri Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining

viloyat filiallariga yuborilib, chuqurlashtirilgan tekshirish o'tkazilgan hamda davolash boshlangan.

Bachadon bo'yni saratonini keltirib chiqaruvchi asosiy omil odam papillomasi virusidir. Ushbu virusning har xil turlari mavjud bo'lib, 90 foiz holatda saratonga olib kelishi mumkin. JSST tomonidan bachadon bo'yni saratonini yo'q qilishga oid global strategiya ishlab chiqilgan. Unga asosan, odam papillomasi virusiga qarshi emlash, ayollar orasida skrining (ommaviy tekshirish) o'tkazishi va saraton oldi kasalliklarini o'z vaqtida, samarali davolash bu xastalikdan 100 foiz himoya hisoblanadi.

Dunyoning rivojlangan 45 ta davlati, jumladan, AQSH, Avstraliya, Kanada, Yevropaning qator mamlakatlarda odam papillomasi virusiga qarshi emlash joriy qilingan. O'zbekiston JSST tomonidan bachadon bo'yni saratonini kasalligini erta aniqlash va profilaktikasi borasida tanlangan 6 hamkor davlat qatoriga kiritilgan.

Odami papillomasi virusiga qarshi emlash milliy dasturining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi Sog'liqni saqlash vazirligining JSST va UNICEF bilan hamkorligining ijobiy natijasidir. Ushbu hamkorlik doirasida Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya hamda akusherlik va ginekologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi yetakchi mutaxassislari 2021-yil iyundan Qoraqalpog'iston Respublikasida 30-55 yoshli 50 ming va Toshkent viloyatining Chirchiq shahridagi 6 ming ayolda bachadon bo'yni saratonini kasalligini odam papillomasi virusi orqali aniqlash yuzasidan pilot skrining loyihasi boshlandi. 2023-yilda 2575 (92,5 foiz qamrov) ayolda qayta va 2249 (70 foiz qamrov) ayolda birlamchi odam papillomasi virusini aniqlash testi o'tkazildi. Shulardan hozirgi kungacha 11 ayolda boshlang'ich bosqichdagi bachadon bo'yni saratonini va 67 ayolda saraton oldi kasalliklari aniqlanib, o'z vaqtida davolandi. Vaholanki, bu ayollarda hech qanday shikoyat bo'lmagan va xavfli kasallik belgilari ularda dastur doirasida tekshiruvdan o'tganda aniqlangan.

Hozir odam papillomasi virusi testi asosida mamlakatimiz miqyosida milliy skrining dasturini joriy qilish rejalashtirilmoqda. O'zbekistonda 2030-yilgacha 9-14 yoshli qizlarning kamida 90 foizini emlash, 35-45 yoshli ayollarning kamida 70 foizini odam papillomasi virusi testi yordamida skrining qilish, bachadon bo'yni saratonini bilan og'rikan bemorlarning 90 foizini samarali davolash, palliativ yordam ko'rsatish ko'zda tutilgan.

"Yangi O'zbekiston" muxbiri Risolat MADIYEVA yozib oldi.





28-dekabr — O'zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Erkin Vohidov tug'ilgan kun

Taxlos

Bu yil ustoz Erkin Vohidov dorilbaqoga rixlat qilganiga yetti yil bo'ldi. Yetti yil ko'z ochib-yumguncha o'tib ketdi. Bu ko'hna dunyo aholisi tojkor virus va uning asoratlarini "elagi" da elandi...



Rustam MIRVOHID, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, shoir

Ishoning, oxiri ... 3838 bilan tugaydigan raqamdan "Rustamjon..." degan mayin va mehribon ovozi eshitishning xumori ko'p tutdi. Ayniqsa, aruzdagi kamtarona muvaffaqiyatlarim borasida ustozning fikrini bilishni juda-juda xohlardim.

Ustoz duosi

Xalqimizda "Oltin olma duo ol — duo oltin emasni" yoki "Duoning kuchi toshlarni yorar" kabi mashhur maqolalar bor. Dinda ham "Faqat duogina taqdiri o'zgartirish qudratiga ega" degan qarashlar mavjud.


sodiq" uni o'ziga taqdiri azal deb qabul qilib, uning ortidan keladigan har qanday "safo-yu" "jaf"ga birdek rozi bo'lmog'i lozim. Bu borada ham ustoz shaxsiy namuna ko'rsatganiga o'zim ko'p guvoh bo'lganman.

Tepakallik ikki xil bo'ladi

Bir zamonlar faxr etardig qop-qora sochning bilan, Sen bukun qoshimadursan turfa qirmoching bilan.

Ustoz Erkin Vohidovning nashrga tayyorlanayotgan yangi kitoblardan biri — "Dil tubiga cho'kkan lahzalar" ustida ishlayotgan edik.

Shunda ustoz nimtabassum qilib, hozir-javoblik ila shunday dedi: — Rustamjon, bilasizmi, tepakallik ikki xil bo'ladi: soch odatda yo peshanadan ketadi, yo boshning o'rtasidan.



— Bu ham to'g'ri.

— Mana shu ikkita ishqalanish tufayli soch boshni ikki xil erta tark etadi-da. Darvoqe, sizga bir tasalli shuki, sizni birinchi toifadagi soch to'kilishi bilan tabriklashim mumkin!


Shunisiga ham rahmat!

So'z — zabarjad, so'z gavhar, oltin, Zargarlikning mashaqqati ko'p. So'zni baytga qadashdan oldin, Katingga ol uni, to'yib qara, o'p!

Erkin Vohidov so'z bilan nihoyatda daqiq, zargarona munosabatda bo'ladigan siyrak ijodkorlardan edi. Nafaqat ijodda, balki hayotda ham. Ustoz bilan suhbat qurayotganimizda mana shu "temir qoida"ga qat'iy amal qilmasak, xijolat bo'lib qolishimiz hech gap emasdi.

2012-2013-yillar. Mashhur "Zakovat" chilardan biri Temur Mirzayev, fors tilining bilimdoni Mirzabek Qalandarov va kamina ustozning yangi kitobini chiqarish bahonasida "Jonon" davradan bir necha bor bahramand bo'layotgan paytlarimiz.

Ne baxtki, bizni ustoz bir zamon ash'orga o'rgatmish, Nafosat deb atalgan ul ajib asrorga o'rgatmish. ... Qadi yo bir hilol go'yo yigib atrofga yulduzlar, Jilo-yu nur darsin gumbazi davvorga o'rgatmish ...



Ustoz Erkin Vohidovning duolari quyidagicha: "Allohim, mening aytar so'zimni, qo'yadigan qadamimni va qilmoqchi bo'lgan barcha ishlarimni oxiri bilan to'g'ri qilgin!". Xayriyatki, ustozdan meros mana shu sodda, lekin tagdor ma'noli duoni takror-takror o'qib, kam bo'lmayapmiz.

Mutarjimga nodir saboq

Oy o'rtanar — ko'zlarida yosh, Ko'ksi dog'u yuragi qiyama. Der: "Ey falak, men edim quyosh, Nega meni qilding tarjima?!".

Mutarjimga nodir saboq

Oy o'rtanar — ko'zlarida yosh, Ko'ksi dog'u yuragi qiyama. Der: "Ey falak, men edim quyosh, Nega meni qilding tarjima?!".

Ma'lumki, badiiy tarjima — nozik jarayon. No'noq tarjimon dastidan "quyosh" o'yg'a evrilishi hech gap emas. Do'rmun seminarlaridan birida ustoz Abdulla Oripov badiiy tarjima haqida noyob gap aytgani hamon qulog'im ostida yangrab turibdi:

— Badiiy tarjima paytida go'yo ikki polvon til kurashga tushadi. Masalan, fors va o'zbek tili yo'xud rus bilan arab tili va hokazo. Faqat bunday kurashning bitta sharti bor — hech qaysi polvon tilning kuragi yerga tegmasligi kerak, ya'ni kuchlar teng kelishi lozim!

Sezib turganidek, gap aslyatga tarjimaning naqadar yaqin yo uzoqligi haqida ketyapti. Tarjima aslyat darajasida bo'lsa — berdi Xudo, mabodo, aksi bo'lsa — urdi Xudo, deb hisoblayvering. Tarjimon kupa-kunduzi asar muallifini sharmanda qiladi, qo'yadi. Bu xuddi chiroyli insonning yuzi siniq yo chang bosgan ko'zguna xira aks etganidek yoqimsiz holat. Shu o'rinda men tarjima san'atining ko'pchilikka noma'lum bir nuqtasiga to'xtalmoqchiman.

Bir kuni Erkin Vohidovning ofisida "arslonning mo'yloviga qo'l tekkitadigan" o'tkir she'rlar borasida suhbatlashib o'tirganimizda, gapimiz kalavasi mashhur rus shoiri M.Lermontov ijodiga ulandi va ustoz uning qalamiga mansub bir dardchil she'rni yoddan o'qib berdi. She'r bunday edi:

Прощай, немая Россия, Страна рабов, страна господ. И вы, мундиры голубые. И ты, им преданный народ. Бить может, за стеной Кавказа Сокроется от твоих пашей — От их всевидящего глаза, От их всеслышающих ушей.

Sakkiz qatorli mazkur she'r meni larzaga soldi. She'ring lirik qahramoni, ya'ni shoirning o'zi Vataniga xitob qilyapti. Dahshat! Odatda, shoirlar o'z Vatani ko'klarga ko'tarib madh etadi, kamdan-kam holatda tanqid qiladi.

Albatta, biz bunga xolis baho berishimiz kerakki, shoir azbaroyi o'z yurtining taqdiridan kuyunib, shunday o'tkir satrlarni bitgan bo'lsa, ajabmas. Qolaversa, shoirni "xalqning vijdoni" deya ta'riflashadi. Chunki vijdon — hech qanday zo'rdan qo'rqmay, zarga uchmay, har qancha achchiq bo'lmasin, faqat rost so'zni aytadigan ilohiy tuyg'u.

Xullas, she'r bir o'qilishda xotiranga naqshlandi. Beixtiyor qalbmning allaqayerlaridagi mudragan hujayralar uyg'ondi...

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati DM

Bosh muharrir: Salim DONIYOROV

MUASSIS: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 236. Buyurtma G-1246.

Navbatchi muharrir: Iroda Toshmatova Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzillimiz: 100060, Toshkent shahri, Shahrisabz ko'chasi, 85-uy